

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM

VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

JISMONIY MADANIYAT FAKULTETI

JISMONIY TARBIYA NAZARIYASI VA USLUBIYOTI KAFEDRASI

*Qo'lyozma huquqida*

*UDK*

5A112001 – **Jismoniy tarbiya va sport mashg'uotlari nazariyasi va metodikasi  
mutaxassisligi magistranti**

**ALLAROD DIYORNING**

**«O'zbekistonda suzishni rivojlanishi va  
"Barkamol avlod" musobaqalari dasturiga kiritilishi»**

**Magistr  
akademik darajasini olish uchun yozilgan  
dissertatsiya**

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga ruxsat etildi.  
"Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti"  
kafedrasi mudiri: \_\_\_\_\_ Q.P. Arslonov  
“\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2017 yil.

Ilmiy rahbar: \_\_\_\_\_ R.X. Kadirov  
p.f.n., dotsent  
Rasmiy opponent: \_\_\_\_\_ G'M.Salimov  
p.f.n., dotsent

**BUXORO – 2017**

## **M U N D A R I J A**

<b>KIRISH.....</b>	<b>3b</b>
<b>A. Mavzuning dolzarbligi.....</b>	<b>10b</b>
<b>B. Mavzuning o'rganilish darajasi.....</b>	<b>11-13b</b>
<b>I.BOB.</b>	
<b>1.1. O'zbekistonda suzish sportining rivojlanishi.....</b>	<b>14-20b</b>
<b>1.2. Mustaqillikka erishilgandan keyin O'zbekistonda suzish sporti.....</b>	<b>21-35b</b>
<b>II.BOB.</b>	
<b>2.1. Suzish sportini "Barkamol avlod" musobaqalari dasturiga kiritilish...</b>	<b>36-43b</b>
<b>2.2. "Barkamol avlod - 2017" sport musobaqalari natijalari.....</b>	<b>44-56b</b>
<b>XULOSA.....</b>	<b>57b</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar.....</b>	<b>58b</b>

# **Mavzu: «O'zbekistonda suzishni rivojlanishi va "Barkamol avlod" musobaqalari dasturiga kiritilishi»**

## **KIRISH.**

- A.** Mavzuning dolzarbligi
- B.** Mavzuning o'rganilish darajasi

## **I.BOB.**

- 1.1.** O'zbekistonda suzish sportining rivojlanishi
- 1.2.** Mustaqillikka erishilgandan keyin O'zbekistonda suzish sporti

## **II.BOB.**

- 2.1.** Suzish sportini "Barkamol avlod" musobaqalari dasturiga kiritilish
- 2.2.** "Barkamol avlod - 2017" sport musobaqalari natijalari

## **XULOSA**

## **KIRISH.**

Suzish bu millionlab kishilar beixtiyor shugullanadigan va kishi salomatligi uchun eng samarali sport turidir. Men bitiruv ishimda suzish sportining rivojlanishi, uning uchun mamlakatimizda yaratilayotgan shart-sharoitlar, xamda uch boskichli sport uyinlarining biri bulgan, lisey va kollej ukuvchilarining uch yilda bir marotaba utkaziladigan "Barkamol avlod" sport uyinlari dasturiga kiritilishini yoritishga karor kildim.

Mamlakatimizda yo'lga qo'yilgan uch bosqichli noyob tizim - "Umid nixollari", "Barkamol avlod" va Universiada musobaqlari iqtidorlarni kashf etib, ular mahoratiga sayqal beradigan, ta'bir joiz bo'lsa, mamlakat, Osiyo, jahon xamda Olimpiadaning bo'lajak championlariga qanot bag'ishlaydigan parvoz maydonidir. Kupchilik yaxshi biladi "Barkamol avlod" sport musobakalari 2001 yildan Suzish sporti juda ommabop va keng tarkalgan sport turi bulganligi uchun xudi 1896 yilgi birinchi yozgi Olimpiada uyinlariga kiritilganidek 2001 yil Jizzax shaxrida o'tkazilgan birinchi

"Barkamol avlod" sport musobakalari dasturiga kiritilgan edi. Albatta sportcha suzishning xamma turi ya'ni erkin suzish, krolda chalkancha suzish turi, brass usuli, batterflyay usulida, estafeta xamda aralash suzishda xar xil masofalarda musobaka utkazilib kelinmokda. "Barkamol avlod" sport musobakalarining suzish turi buyicha xar bir viloyat terma jamoasidan 2001 yili 8 kiz, 8 usmir katnashgan bulsa, sunggi utkazilgan 3 musobakadan buyon xar viloyat jamoasidan 4 kiz, 4 usmir katnashib kelinmokda.

Shu yilgi ya'ni 2017 yil Jizzax shaxrida bulib utgan "Barkamol avlod" sport musobakasida Buxoro viloyatimizdan suzish buyicha kizlar jamoasida 4 kiz Pulatova Lobarxon, Ibragimova Saodat, Baxronova Nafisa, Kurbonova Malikalar va usmirlar jamoasidan 4 usmir Xasanov Dilshod, Yuldashev Kosimboy, Rustamov Muxammadali, Buriev Shermurodlar katnashdilar. Jamoamizning bu yilgi musobakada unchalik omadi kelmagan bulsada, 13 jamoa ichida ichida 5 urinni egallashdilar. Bu yilgi "Barkamol avlod" musobakalarida ishtirok etgan bu usmirlarni kelajakda "Universiada" musobakalari kutmokda.

Darxakikat prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoev xam "Barkamol avlod" ishtirokchilariga yullagan tabrigida bu yoshlardan kelajakda umidlari katta ekanligini ta'kidladilar.

Azal-azaldan ming-minglab alpomishkelbat o'glonlaru, barchinsuvrat qizlarga jonajon Vatan bo'lган bu aziz tuproq bag'rida nafas olib, ulkan orzular bilan yashayotgan yosh avlod, bugun O'zbekistonimizni jaxonning eng taraqqiy etgan davlatlari qatoriga olib chiqmoqda. Ayniqsa, sportchi yoshlarimiz bu borada yetakchilarga aylanib ulgurishdi. Ularning erishayotgan muvaffaqiyatlari qalbimizga faxr-iftixor baxsh etib, buyuk kelajakka bo'lган ishonchimizni mustaxkamlamoqda.

Xar bir insonning muqaddas vazifasi, aytish mumkinki xayotning ma'nosi qobil farzandlar o'stirish, ularni ota-onasiga, Vataniga sadoqatli kishilar qilib yetkazishdan iborat. Shu ma'noda 1993 yilning 4 martida Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan davlatimizning birinchi yuksak nishoni - "Sog'lom avlod uchun" ordeni xam inson va jamiyat taqdirini, kelajakni, oldimizda turgan ulug'

maqsadlarni ko'zlab ta'sis etildi. Sog'lom avlod tarbiyasi mustaqilligimizning ilk yillaridayoq davlatimizning siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilandi. Sog'lom avlod nafaqat jismonan baquvvat yoshlarni shu bilan birga chuqr bilimga ega, ma'naviy barkamol dunyodagi tengdoshlar bilan bellashishga, ularga xalqimizning iste'dodi va saloxiyatini namoyish etishga qodir bo'lgan avlodni tarbiyalash demakdir. Istiqlolning dastlabki yillaridanoq mamlakatimizda ta'lim tizimini tubdan isloq qilish, yosh avlodni xar tomonlama yetuk barkamol etib tarbiyalash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Davlatimiz raxbari tashabbusi bilan ishlab chiqilib, xayotga izchil tatbiq etilgan kadrlar tayyorlash milliy dasturi va maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi mazkur tizimda isloxotlarni samarali amalga oshirish imkonini yaratdi. Yaqinda prezidentimiz bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi Xomiylik kengashining navbatdagi yig'ilishida "Bolalar sporti biz o'z oldimizga qo'ygan buyuk bir maqsadga erishi uchun, ya'ni barkamol avlodni tarbiyalash voyaga yetayotgan bolalarimizni xayotimizni xal etuvchi kuchga aylantirish, O'zbekistonimizning dunyodagi taraqqiy topgan davlatlar qatoridan joy olishida qanday beqiyos o'rinn va ahamiyat kasb etishi xaqida bugun xech kimga tushuntirib berishga xech qanday hojat yo'q. Darhaqiqat xar bir millatning ertangi kuni bugungi avlod taqdiri bilan uzviy bog'liqdir.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, farzandlarimizni jismonan va ma'nani qilib tarbiyalash borasida o'tgan yillar davomida keng ko'lamda ishlar bajarildi. Xususan mamlakatimizda o'tkazib kelinayotgan uch bosqichli musobaqa tizimi

("Umid nihollari", "Balkamol avlod", "Universiada") том ма'нода faxrimizga aylandi.

Umumta'lim maktab o'quvchilarining "Umid nihollari", akademik lisey va kasb-xunar kollejlari o'quvchilarining "Barkamol avlod" xamda oliy o'quv yurti talabalarining "Universiada" sport o'yinlari og'il-qizlarimizning yurt sharafini munosib himoya qiladigan sportchilar bo'lishiga munosib xizmat qilmokda. Bu uch bosqichli sport musobaqalarida suzish sporti xam o'ziga xos axamiyat kasb etib, munosib o'rinni olgan. Mavzuning dolzarbliji va o'rganilish darajasi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin yangi demokratik jamiyat sifatida dunyoga tanilgach yurtimizda keng miqyosda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga kirishildi. Mustaqil yurtimiz zabardast va buyuk davlatga aylanib bormoqda.

Hayotimizdagi har bir soha egalari davr talabi va mavjud sharoitdan kelib chiqqan holda o'z faoliyatini ko'rib chiqib, qayta qurmoqda. Bu narsa jismoniy tarbiya va sport sohasida ham muayyan darajada o'z ifodasini topmoqda.

Azal-azaldan jismoniy tarbiya va sport ijtimoiy hayotning tarkibiy qismi sanalgan va uning rivojlanishi ham har bir davrning o'ziga xos xususiyatlari bilan uzviy boqliqlikda bo'ladi. Shu bois

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqil davrining boshlanishidayoq jismoniy tarbiya va sport jarayonining jamiyat taraqqiyoti uchun ahamiyati katta ekanligiga jiddiy e'tiborni qaratdi. Chunonchi Oliy Kengashning 1992 yil 14 yanvarda qabul qilgan "Jismoniy tarbiya va sport" to'g'risidagi qonuni fikrimizning asosidir.

Mustaqillik yillarda O'zbekistonda jismoniy tarbiya tizimidagi islohotlarni o'rghanish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga Prezidentimiz I.A.Karimov Farmonlari bo'yicha jumhuriyat aholisini so?lomlashtirish, xalq sog'lig'ini mustahkamlash uchun jismoniy tarbiyaga va sportga katta e'tibor berilmoqda. "Jismoniy tarbiya, -deyiladi O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi qonuni"da,- O'zbekiston Respublikasi xalqlari milliy madaniyatining ajralmas qismi, jismoniy va madaniy, ma'naviy kamolotining muhim vositasi bo'lib, O'zbekiston Respublikasining xalqlari o'rtasida do'stlikni mustahkamlash, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot ishiga xizmat qiladi". Ko'rindiki, yosh avlodni sog'lom va barkamol qilib tarbiyalovchi jismoniy tarbiya oldiga katta mas'uliyatli vazifalar qo'yilayapti. Kelajakda barkamol avlodni jismoniy baquvvat qilib tarbiyalashga imkon beradigan, ularning jismoniy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, milliylashtirish, bunda xalqimizning unutilib borayotgan milliy o'yinlari, ularni to'plash, hayotga-maktabga tadbiq etish yo'llari va usullarini qayta ko'rib chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Biz tanlangan mavzuning dolzarbiligi ana shunda ko'rindi.

Barkamol avlodni tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, uning o'rni kabi muammolar, ularning inson jismoniy tarbiyasidagi o'rni, o'ziga xos xususiyatlari haqida ilmiy adabiyotlar juda kam. Bu haqda jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyotiga bag'ishlangan, mualliflari rus olimlari bo'lgan darslik va o'quv qo'llanmalarida ma'lumotlar berilgan. O'zbek olimlarining ishlarida, tadqiqotlarida esa bu mavzu kam o'r ganilgan.

Ishning ilmiy yangiligi. Barkamol avlodni tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sportning o'rni, uni rivojlantirish muammolarining umumiyl tavsifi va ulardan foydalanish yo'llari mavzusi ilk marta yaxlit holda tadbiq etilayapti. Bu esa bizning bitiruv-malakaviy ishimizning ilmiy yangiligini belgilab beradi.

Ishning maqsadi va vazifalari. Biz barkamol avlodni tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sportning o'rni, uni rivojlantirish masalalarini tadqiq etishni o'z oldimizga asosiy maqsad qilib qo'ydik. Shu maqsadda quyidagi vazifalarni yechishga harakat qilamiz:

- Barkamol avlodni tarbiyalashda jismoniy tarbiya shakllarini tadqii etish;
- Jismoniy tarbiya va va sportni rivojlantirishda milliy o'yinlarning rolini ko'rsatish;
- barkamol avlod jismoniy tarbiyasi mashg'ulotlar va darsdan tashqari shakllarini ko'rsatish;
- mustaqillik yillarda jismoniy tarbiyaning o'rnini belgilash;
- barkamol avlod jismoniy tarbiyasida sportining rolini aniqlash va ma'lum xulosalar chiqarish

Mustaqillik yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "Jismoniy tarbiya sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" degan maxsus qaror qabul qildi. Bu qarorda ommaviy badantarbiya harakatining butun aholini bolalik chog'idan boshlab o'ziga qamrab oluvchi umumxalq harakatiga o'tkazish yo'li aniq ko'rsatildi. Ayniqsa, jismoniy tarbiya sohasida ilmiy tadqiot ishlarini tashkil qilishga alohida e'tibor qilindi.

O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish to'g'risida Kadrlar tayyorlashdagi oqilona tizim g'oyat muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari hukumatning hamda Respublika Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasining qarorlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining Davlat sport komitetining jamiyat taraqqiyotini ilmiy tahlil qilish yo'li bilan jismoniy tarbiya va sportni tadrijiy rivojlantirish ishini amalga oshiradi. Respublikada amalga oshirilayotgan jismoniy tarbiyaning o'z oldiga qo'ygan maqsadi sog'lom, ruhan tetik va bonyodkor insonni hayotga tayyorlashdan iborat. Bu maqsad Respublikada jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchi barcha muassasa tashkilotlar uchun zaruriy vazifadir. Maqsaddan kelib chiqib jismoniy tarbiya quyidagi vazifalarni hal qilishi mumkin:

1.Sog'lomashtirish: salomatlikni mustahkamlash organizmni har tomonlama jismonan takomillashtirish, chiniqtirish bilan O'zbekiston aholisining uzoq yillar bonyodkorlik layoqatini yo'qotmay yashashini ta'minlash.

2.Ilm berish: harakat malakalari va layoqatini shakllantirish, jismoniy fazilatlarini rivojlantirish, maxsus bilimlarni o'zlashtirish, sportchilarda tashkilotchilik layoqatini uyg'otish.

3.Tarbiya berish: aqliy, axloqiy, nafosat va mehnat tarbiyalariga hamkorlik qilish.

O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya davlat muassasalarida, jamoat-havaskor badantarbiya tashkilotlarida va oilalarda, mahallalarda amalga oshiriladi. Davlat muassasalarida ( maktabgacha yoshdag'i bolalar tarbiyagohlari, umumiylar, ta'lim maktablari, maxsus oliy va o'rta bilimgohlar v.?) jismoniy tarbiya insonni har tomonlama rivojlantiruvchi majburiy zaruriy element deb

hisoblanadi. Musobaqa g'oliblari aholi orasida qahramon hisoblanib, xalqimiz tomonidan juda qadrlangan.

Jismoniy mashqlar va sport turlarining soni ko'payishi bilan birga ularga qiziqish avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. U yoki bu sport turlarining texnikaviy asosi xam takomillashishida davom etmoqda. Jismoniy tarbiya va sport ishlarini xalq orasida keng targ'ib qilish maqsadida Respublika kasaba uyushmalarining "O'zbekiston" sport jamiyatini barpo etilgan bo'lib, unda 107 ta tashkilot va korxonalarining jismoniy tarbiya jamoa a'zolari, 33 ta sport maktabi, 31 ta oliy o'quv yurti sport klubi, 30 ta urta va o'rta maxsus mакtab, kollejlar a'zolaridan 120 ming kishi qatnashmoqda.

"Mexnat rezervlari" sport jamiyati tashkilotining 48 ta bilim yurtida, 303 dan ortiq umumta'lim maktablarida o'z muxlislari bor. 20 sport maktabida 360 ming o'quvchi sportdan ta'lim olib o'z maxoratini oshirmoqda.

Oliy o'quv yurtlarida, akadem lisey va kollejlarda jismoniy tarbiya darsini olib borish uchun talabalar asosiy, sport va maxsus tibbiyot guruxlariga ajratiladi. Bunda ukuv yili boshida talabalarning jinsi, salomatligi, jismonan rivojlanganligi, jismoniy mashqlarni bajarish uchun tayyorgarligi xisobga olinadi. Asosiy guruxga tibbiyot kurigidan utgan, umumiy jismoniy tayyorgarlikka ega bulgan talabalar qabul qilinadi.

**Mavzuning dolzarbliги** shundaki suzish sporti o'zining jozibadorligi bilan kishilarni bir tomonidan o'ziga tortsada, ikkinchi tomonidan uning salomatlikka nechog'lik ulkan hissa qo'shishini sport mutaxassislari, tibbiyot

xodimlari tomonidan isbotlagan bo'lib, ayni paytda suzish sportiga ehtiyoj juda katta bo'lgan paytda bu mavzu ko'tarilmoqda.

**Mavzuning o'rganilish darajasi** – mavzuni o'rganish O'zbekistonda o'tgan asrning birinchi choragidan boshlanib, uch davrga bo'linib hamda mustaqillik davridagi O'zbekistonda suzish sportiga bo'lgan e'tibor va yangi asrning boshidan Universiada dasturiga kiritilishini o'z ichiga oladi. Albatta bu yerda O'zbekistonda suzish sportining rivojlanishini puxta o'rganish uchun bir qancha adabiyotlar, qo'llanmalar, boshqa oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari ma'ruzalar matnlari, internet ma'lumotlaridan to'liq foydalanilgan.

**BMIImizning maqsad va vazifalarini quyidagicha belgilab oldik va quyidagilarni o'rgandik:**

- a)** O'zbekistonda suzish sportining boshlang'ich davri, rivojlanish davrlari mustaqillik davrida suzishga bo'lgan e'tibor,
- b)** O'zbekistonda suzish sportining rivojlanishiga nimalar turtki bo'lganligini, davrlar o'rtasidagi natijalarni o'sishini,

Barkamol avlodning jismoniy jihatdan to'kis, sog'lom mehnatga va Vatanni himoya qiluvchi tarzida o'sishidan xalq ham, jamiyat ham manfaatdor. Buning uchun o'quvchilar jismoniy tarbiya bilan chuqur shug'ullanishlari, turli milliy o'yinlardan foydalanish mahoratini egallashlari kerak buladi. Bu esa yosh avlod tarbiyasini yanada kuchaytirish, ularni o'z xalqi, mustaqil davlati va jamiyat oldidagi burchini his etish ruhida tarbiyalashdek g'oyat muhim vazifalar bilan bog'liqidir. Bolalarda maktabda o'qiy boshlagan birinchi kundanoq mehnatga

muhabbat, ishchanlik, boshlangan ishini oxiriga etkazish, sabotlilik xususiyatlarini shakllantirish imkonini yaratiladi. Bunda jismoniy tarbiyaning barcha zamonaviy vositalari bilan birga suzish sporti o'yinlari juda qo'l keladi, chunki bu o'yinlar bolalarni ruhiy, jismoniy, ma'naviy jihatdan tarbiyalashning barcha jihatlarini o'z ichiga ola biladi. Zero, millatning kelajagi bo'lgan yoshlarni sog'lom, yetuk va komil inson qilib tarbiyalash mustaqil yurtimiz kelajagining zamini mustahkam bo'lishiga xizmat etadi.

Ma'lumki, suv sporti va milliy sport turlari tarixiy taraqqiyot jarayonida jiddiy o'zgargan. Har bir iqtisodiy tuzum ularning mazmun va qoidalarida o'zining muayyan qiziqishini orttirgan. Ba'zi o'yinlarning nomi va qoidalari hozircha saqlanib qolgan. Ana shunday o'yinlardan foydalanishda ularning bolalarga jismoniy ta'siridan tashqari tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishini ham nazardan soqit qilmaslik lozim. Ularni birgalikda ijodiy qo'llashni maqsadga muvofiqlashtirish kerak.

O'zbekiston Davlat sport qo'mitasining rasmiy ma'lumotlariga qaraganda. 1991 yilda 38 kishiga xalqaro toifadagi sport ustasi unvoni berilgan, 350 kishi esa sport ustasi unvoniga sazovor bo'lgan.

Ma'lumki, 1992 yilning yozida Barselonada (Ispaniya) bo'lib o'tgan yozgi XXV Olimpiya o'yinlarida O'zbekistonning 17 nafar sportchisi sobiq SSSR tarkibida so'nggi bor qatnashdilar. Ular orasida Galieva R., Chusovitina O. /gimnastika/, Shmoniia M. /engil atletika/ oltin me-dal, Sirsov S. /og'ir atletika/, Asrabaev /o'q otish/ kumush medal va Zaxarevich V. /qilichbozlik/ bronza medali sovrindorlari bo'lishdi. 1996 yil Atlanta (AQSh)da o'tkazilgan XXVI Olimpiya o'yinlarida

A.Bagdasarov (dzyu-do) kumush, K.To'laganov (boks) bronza medaliga sazovor bo'lishdi. 2000 yil Sidneydagi (Avstraliya) XXVII Olimpiya o'yinlarida M.Abdullaev boks bo'yicha oltin; Artur Taymazov (kurash) kumush, Rustam Saidov, Sergey Mixaylov (boks) bronza medallarini qo'lga kiritdilar. O'zbek kurashi bo'yicha Xalqaro kurash assosiasiyasi tuzildi va 3 marta jaxon championati o'tkazildi. Umuman, Respublika sporti taraqqiyotning yangi bosqichga ko'tarildi. /

3. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan tobora rivoj topmoqda. Bu esa jismoniy tarbiya va sport rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bunga faqat mustaqillik yillarida (1991-2001) erishildi. Boshqa sohalar qatori jismoniy tarbiya va sport sohasi ham faqat shu yillarda rivoj topdi.

O'zbekistonda shu yillarda boshqa sport turlari qatori suzish sporti ham jadal suratlarlar bilan rivojlanib bordi. Toshkent, Navoiy shaharlarida suzish bo'yicha Olimpiya zahiralari sportchilari shug'ullanadigan zamonaviy talablarga javob beradigan suzish inshootlari qurilgan bo'lib, bu inshootlarda shug'ullangan O'zbekistonlik suzuvchi sportchilarning bir necha o'ntasi Osiyo, Jahon, Olimpiada o'yinlari musobaqalarida ishtirok etib, yaxshi natijalarga erishib, respublikamiz bayrog'ini baland ko'tarishga sababchi bo'lganlar. Mustaqillik yillarida esa uch bosqichli sport musobaqalari –“Umid nihollari”, “Barkamil avlod”, “Universiada” musobaqalarining tashkil qilinishi va o'tkazilishi munosabati bilan respublikamizning bir nechta viloyatida bir necha zamonaviy jahon standartlariga mos suzish havzalari qurilib, eskilari qayta ta'mirlandi.

## **I.BOB.**

### **1.1. O’zbekistonda suzish sportining rivojlanishi**

Biz O’zbekistonning geografik joylashishini o’rganganimizda Vatanimiz – o’zining cheksiz dashtu biyobonlari, cho’llari bilan bir qatorda o’zining daryolari, ko’llari, anhorlari, sun’iy suv havzalari bilan O’rta Osiyo respublikalari ichida ajralib turadi. O’zbekistonimizda Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon , Angren, Chirchiq, Oqdaryo, Qoradaryo kabi daryolar mavjudki, shu daryolar sohillarida yashovchi aholi qadimdan bu tabiiy boyliklarini insonlar manfaati uchun bo’ysindirish uchun kurashib kelganlar. Ko’l kanallari, suv omborlari Chorvoqsuv suv ombori, Kattaqo’rg’on suv ombori, Angren suv ombori, Buxorodagi “To’dako’l”, “Kuyuk mozor” suv omborlari, bir qator suv havzalari (“Rohat ko’li”, “Toshkent dengizi”) bunyod qilindi. Ular aholisi uchun baliq ovlash, ekish, so’g’orish, ro’zg’orda foydalanish va shu bilan birga hayotiy zaruriy bo’lgan suzishga o’rgatish va suzish sportining rivojlanishi uchun manba sifatida xizmat qilib kelinmoqda.

Qadimgi dunyo tarixini o’rganganimizda va biologik nuqtai nazaridan qaraganimizda yer yuzida jonlanish avvalo suvda boshlanganiga iqror bo’lamiz. Shunday ekan inson zotining hayotiy zarurati yurish bo’lganidek tirikchilik ilinjida suvda suzishni ham o’rganishga majbur bo’lishganlar. Suzishning qadimiyligi, inson hayotidagi zarurati, inson salomatligidan ahamiyatini hisobga olib 1896 yildan Olimpiada musobaqalari Vatani bo’lmish Afina shahrida o’tkazilgan I-Olimpiada o’yinlari dasturiga kiritilgan edi.

Suzish sportining boshlang'ich davri O'zbekistonda 1924-1925 yillarga to'g'ri keldi. Garchi bu yillarda maxsus boyliklar suv havzalari ko'rilmagan bo'lsada, birinchi marta gidrostantsiyalar qurilib bunyod etildi. Masalan Toshkentda Bo'z suv tug'on bilan to'sib, sun'iy suv ombori hosil qilindi. Bu esa o'z navbatida (O'zbekistonda suzish sportining boshlang'ich davri 1924-1925 yillarga to'g'ri keladi) aholining yoshlarning sevimli dam olish va cho'milish maskani bo'lib qolgandi. Sal keyinroq ikkita suv stanstiyasi qurilib, shu tariqa suzish basseyni va balandlikdan suvga sakrash minoralari qurildi. 1927 yilning yoziga kelib jumhuriyatimizda birinchi marta shu suv stanstyiasida Toshkent bilan Samarqand shaharlari o'rtasida suzish bo'yicha musobaqa bo'lib o'tdi. Bu o'z navbatida 1928 yildagi sobiq butun ittifoq sport olimpiadasiga qatnashuvchi O'zbekiston terma jamoasi a'zolarini saralab olishga yordam berdi. Nihoyat, terma jamoaga quyidagilar: Nadejda Pak, Nina Labova, Pyotr Kravchenko va boshqalar a'zo bo'ldilar. Ammo spartakiadada O'zbekiston terma jamoasining suzuvchilari juda ko'rsatishdilar. Ular Turkmaniston jamoasidagina yuqori bo'lib 16-o'rinni egallshdilar. Shunga qaramay spartakiadada O'zbekiston jumhuriyatining Buxoro, Andijon, Toshkent, Farg'ona va boshqa shaharlarida ham suzish sportining rivojlanishiga turtki bo'ldi. Masalan: Toshkentning "Komsomol kuchi", Andijon shahridagi istirohat bog'ida sun'iy suv havzasida, Buxorodagi istirohat bog'i ichidagi eng katta Labihovuzda suzuvchilar suzish sporti bo'yicha har xil mashg'ulotlar o'tkazadigan bo'ldilar. 1930 yili "Mehnat va Vatan" mudofasiga bo'lgan tayyor kompleks majmuasi nizomi tasdiqlangach, Toshkentda yangi turdag'i basseynlar barpo etildi. Qad

ko'targan yirik korxonalar qoshida zamonaviy basseynlar qurila boshlandi. Masalan: Toshkent to'qimachilik kombinati qoshida uzunligi 50 m keladigan suvi isitiladigan ochiq basseyn qurib ishga tushirildi. 1935 yil Andijonning sun'iy suv havzasi birinchi marta jumhuriyat bo'yicha suv sporti bayrami o'tkazildi. Bunda suzish bo'yicha jumhuriyat birinchiligi o'tkazildi. Andijon, Qo'qon, Toshkent, Farg'ona shaharlarining eng mohir suzuvchilari o'zaro bellashdilar. Bunda Toshkentlik Aleksandr Vajning 100 va 200 mga yonboshlab suzish bo'yicha birinchi o'rinni egalladi. Nikolay Zokirov 200m masofaga erkin suzsihda chimpeon bo'ldi. Valentine Mixaylov 100 va 200 mga brass usulida suzishda g'olib chiqdi. 100 mga erkin usulda suzsihda esa Andijonlik Nikolay Davedenko g'olib deb topildi. 30-yillardan boshlab, davlat tashkilotlarining talab va tashabbusiga ko'ra jumhuriyatda suzish sportini yanada takomillashtirish aholining yoshlarning sevimli dam olish va cho'milish maskani bo'lib qoldi. Sal keyinroq esa ikkita suv stanstiyasi qurilib, shu tariqa suzish basseyni va balandlikdan sakrash , suvgaga sakrash minoralari qurildi. Toshkentdagি temir yo'lchilar istirohat bog'ida uzunligi 25mli ochiq basseyn qurildi va shu yerda suzish bo'yicha bolalarning sport maktabi tashkil etildi. 1939 yilda esa Toshkentda maydoni 8 hektar keladigan ko'l barpo etildi. Ko'lda asosiy baza hisoblangan "Dinamo" va "Spartak" suzuvchilar stansiyasi tashkil etildi. Bu bazada keyinchalik jumhuriyatimizda dastlabki murabbiylari yetishib chiqdi. A.K.Smirnov (hozir O'zbekistonda xizmat kursatgan murabbiy) B.T.Bondarenko(xizmat kursatgan murabbiy) N.T.Shuljenko, V.I.Mixaylov, va boshqalar. Ular kuplab yoshlarga ustozlik qilib, mohir suzuvchi sportchilarni

yetshtirib berdilar. 1939yilga kelib Uzbekistonda suzish buyicha jumhuriyat federatsiyasi tuzildi. A.K.Smirnov unga rais qilib tayinlandi. 1948yili Qozog'iston va Urta Osiyo jumhuriyatlari jamoalari urtasida suzish buyicha musobaqa bulib utdi. Bunda jumhuriyatimiz jamoalari 1-urinni oldi. Jumhuriyatimizda Anatoliy Gerasimov, Georgiy Tejankov, Rashid Xaizin kabi sport ustalari yeteshib chiqdi. Jumhuriyatimiz hukumi suzish uchun sport bazalari qurilishiga katta mablag ajratdi. 1945-1955yillar mobaynida Andijon, Namangan va Quqon shaharlarida 25metrli ochiq basseynlar qurib ishga tushirildi va ular qoshida suzish buyicha bolalar va usmirlar sport maktabi ochildi. 1954yilda Yuriy Fralov 200metrga batterflay usulida (2,32,6) suzib sobiq SSSR championi va rekordchisi degan unvonga sazovor buldi. Uzbekiston suzish federatsiyasi kelajakda suzish sporti turlarini yanada rivojlantirish, yoshlar orasida suzish sportini keng ommalashtirish va suzish uchun bazalar sonini yanada kupaytirish tugrisida uz reja va vazifalarini ishlab chiqdi. Viloyatlar markazlarida bir necha yangi basseynlar qurildi. Respublikada oliy sport maktabi ochildi va unga eng kuchli suzuvchilar qabul qilindi. Mazkur maktabdagagi mashgulotlar jumhuriyatimizdagi ko'zga ko'ringan murabbiylar A.K.Smirnov, V.t.Bondarenko, V.I.Lutey, A.Ye.Shpalyanskiy kabilar rahbarlik qildilar. 1960yil Toshkentda Uzbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti qoshida suvi isitiladigan 25\*12mli ochiq basseyn, 1962yil „Mehnat rezervlari” klubiga qarashli ko'ngilli sport jamiyati(DSO)nomidagi 25\*12mli yopiq basseyn 1964yil „Mehnat jamiyati”ga qarashli 50\*21mli yopiq basseyn, 1969yil Armiya sport klubiga qarashli suvi isitiladigan 50\*21mli ochiq basseyn, 1963yil Navoiy shahrida 50\*21mli baseynlarning barpo etilishi jumhuriyatimizdagi suzish sporti

tarixida katta voqeа buldi. Natijada bizning suzuvchi sportchilarimiz o'z mahoratlarini oshira bordilar. Masalan, mamlakatimiz suzuvchilari 1956-59yillardagi sobiq ittifoq xalqlari 1 va 2-spartakiadada qatnashib 9-o'rinni olgan bo'lsalar, 1967yilgi 4-spartakiadada 5-urinni egalladilar. Erkin usulda 4\*100mga estafeta suzishda qizlarimiz Svetlana Babanina, Natalya Ustinova, Raisa Maninova va Rita Pavlovalar oltin medalga sazovor buldilar. 1964-65yillarda S.V.Babanina 100mga brass usulda suzib, ikki marta rekordni urnatdi. Tokioda utkazilgan olimpiiadada u 200mga brass usulida (2.28.6), 4\*100mga kombinasiyali estafetada suzib, 2ta bronza medaliga sazovor buldi. Mazkur olimpiiadada toshkentlik Natalya Ustinova 4\*100mga kombinasiya usulida suzib, bronza medalini qulga kiritdi. U uz mahoratini oshirib borib, Yevropa championi va rekordchisi, 16marta mamlakat championi buldi. Uzbekistonda A.A.Gvarsman murabbiyligida yetishib, Sergey Pavlovis Kanov 1968yilgi XIX Olimpiada uyinlarida uzini kursatgan bulsa, 1969yil 200mga batterflay usulida suzish buyicha championlikka nomzod buldi. Shu tariqa Uzbekistonda suzish sporti yuksala bordi. 1998yil 3-5iyunda Toshkentda suzish sporti buyicha xalqaro yirik musobaqa bulib utdi. Bu aslida yaqinlashib kelayotgan XXVolimpiadada qay darajada tayyorgarligimizni kimdan va nimadan umidvor ekanligimizni ham kursatib berdi. Barcha turlar buyicha jahonning eng mohir suzuvchilari qatorida 26ta SNG suzuvchilari ham qatnashdi. Bu xildagi turnir jumhuriyatimizda 5yil avval ham bulib utgan edi. Buning sababi Uzbekistonning iqlim sharoiti Seulning iqlimiga uxshashlidir. Bunda Bolgariya, Polsha, Ruminiya, Chexoslavakiya, Shvesiya, Yugoslaviyaning mohir suzuvchilari qatorida Uzbekiston suzuvchilari ham uz qobiliyat va kuchlarini sinab kurdilar. Bu

voqelar sportimiz tarixida uziga munosib urin oldi. Vaqt utgan sayin jumhuriyatimiz shon-shuhratini himoya qiluvchi sportchilarimiz tobora kupaya bordi. Jismoniy tarbiya va sport turlari tobora rivojlanib bordi. Suzish sporti taraqqiyotlasha bordi. Maxsus zamonaviy basseynlar soni kupaydi, eskilari tamirlandi.

Yoshlar urtasida suzishga bulgan qiziqish ortdi. Natijada nomlari yuqorida tilga olingan rekordchilar, championlar, sovrindorlar qatoriga yana yangi nomlar kiritildi. Mamlakatimiz rekordchisi xalqaro klassdagi sport ustasi, dustlik 84turnirining golibasi Larisa Belaken, xizmat kursatgan sport ustasi, chalqancha suzish buyicha jahonning sobiq rekordchisi, XXIV Olimpiada sovrindori Sergey Zabolotnikov, championlar: Yevgeniya Vavilova, Marina Tanina, Yelena Ovchar, Janna Balotova, Yevgeniy Bender, Vladimir Xonyanin, Andrey Rumyankov, Pavel Pak, Aleksandr Talpeykin, Dmitriy Pankov, Rinat Shichayev, Dilshod Egamberdiyev jumhuriyatimiz turnirlarida sovrindor bo'ldi. Andijonlik suzuvchi Nargiza Madumarova, Baxtiyor Madumarov, Uzbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutining suzuvchilaridan: Yulduoshxuja Saidmuxammedov, Qahramon Vahobov va boshqalardir. Shu zaylda suzish dars sifatida jismoniy tarbiya oliy uquv yurtlarining uquv dasturiga va jadvaliga kiritildi, Urta məktəb oliy va urta maxsus bilim yurtlarining jismoniy tarbiya buyicha uquv dasturlarida majburiy fakultativ kurs sifatida urin olgan. Məktəblarda şəhərə qarab jismoniy tarbiya darslarida suzishga urgatish buyicha mashgulotlar olib borilmoqda. Uzbekiston xalq talimi vazirligining 5-9 sinflarining har biri uchun 14 soatdan rejalashtirilgan. Hozirgi paytda ayrim məktəblar uz məktəbida şəhərə bulmasa, yaqin atrofdagi

basseynlarni ijara ga olishmoqda. Yoz oylarida ochiq suv havzalarida va bolalar yozgi dam olish oromgohlarida suzish mashg'ulotlari utkazilmoqda. Suzish shu ishlarning hammasi davlat dasturiga muvofiq tasdiqlangan rejalar asosida olib boriladi. Chunki bizning jismoniy tarbiya tizimida suzish asosiy urinni egallaydi. Shu sababli boshqa jismoniy mashg'ulotlar qatori ham jumhuriyat jismoniy tarbiya kompleksiga qaratilgan. Ikkinchi sababi, suzishdagi tarbiyaviy ishlar butun mashg'ulot jarayonida olib borilib, bolalarning ongli, intizomli, tashabbuskor, sabot matonatli, jasur dadil va irodali bulib o'sishiga katta ta'sir kursatishi biz uchun juda muhim ahamiyatga egadir.

## **1.2. MUSTAQILLIKKA ERISHILGANDAN KEYIN O'ZBEKISTONDA**

### **SUZHISPORTI**

O'zbekiston viloyatlarida suzish sportining rivojlanishi, Andijon viloyatidagi boshlagan Andijon, Farg'ona vodiysida joylashgan bulganligi sababli geografik joylashuvi jihatidan tog' tizimlariga yaqinroq joylashganligi, uziga xos iqlimi bilan ajralib turadi. Ob-havo tez-tez uzgarib goh isib, gohida 26+36°C gacha chiqsa, bazan -3-5°C gacha pasayib ketishi mumkin. Tog adirlarida yoqqan jalalar oqibatida sellar vujudga kelib, xalq xo'jaligiga zarar keltirardi. Shu sasabli selga qarshi kurashish uchun vujudga kelishi mumkin bulgan soylar tusilib, kichik suv omborlari va hovuzlar qurilmoqda. May oyining ikkinchi yarmidan boshlab havo isib ketadi, haqiqiy issiq, quruq yoz fasli boshlinadi. Yozning maksimum issiqlik harorati +40+42°C bo'lib uzoq davom etadi, davomiyligi 235-240 kun. Ob-havoning bunday qulayligi tabiiy suv havzalari, sun'iy ochiq suv havzalarida suzish bilan shug'ullanish imkoniyatini yaratadi. Fargona vodiysini urab olgan tog'lardan juda kup soy va daryolar oqib, aholi turar joylari yaqinidan oqib utadi, undan qishloq xujaligi uchun foydalanishi bilan birga suzish sportining rivojlanishi uchun ham samarali foydalaniлади. Bu daryolar yassi, kucharit, qorachigit, moyli suv daryolaridir. Andijon viloyati markazi Andijon shahrida hozirgi vaqtida suzish sportining inshootlaridan 3ta usti yopiq, yozgi basseynlar joriy mакtablari, kollej va uquv yurtlari talabalari ixtiyoriga topshirilgan. Bu suzish maskanlarida bir necha yuzlab sportchi yoshlar uz sport malakalarini oshirmoqdalar. Andijon viloyatiga eng yaqin tumanlardan bulgan Andijon tumani hududida mustaqillikka yaqin suniy suzish havzalari bulmasada ariq va suniy hovuzlar kup edi. Mustaqillik

davrida shaharchada ikkita usti ochiq basseynlar qurilib yoshlarga topshirildi. Asaka tumani 1926yilda tashkil qilingan bulsada bu tumanda suzish sportiga unchalik etibor berilmagan edi. Mustaqillik yillarida eski umid nihollari musobaqalari basseynlari tamirlanib UMT talabalari uchun umid nihollari arafasida yangi zamonaviy yozgi basseyn qurib topshirildi.

Andijon viloyatining Asaka tumanida ham suzish sportiga e'tibor yaxshi, mustaqillikda tuman markazida ochiq basseynlar mavjud bulgan bulsa, 1998yilga kelib UzO.Avto korxonasi homiyligida zamonaviy usti yopiq isitiladigan basseyn qurib yoslar ixtiyoriga topshirildi.

Andijonning keksa tumanlaridan bulgan Baliqchi tumanida zamonaviy basseynlar bulmasada, yozgi suvi isitilmaydigan standart basseyn va bir necha ariqlar, mакtab bolalarining suzish darsini utkazishlari uchun moslashtirilgan. Andijon viloyati Buloqboshi tumani markazida ham bir necha suniy hovuz va ariqlar maktab bolalariga suzish sporti bilan shug'ullanishga tayyorlangan.

Andijon viloyatining Buz tumani shaharchasida ikkita standart basseynlar 8\*25mli mavjud, shahar sportchilari Buz suv ombori hududida ham sport mashgulotlarini utkazib turilada. Andijon viloyatining Jalaquduq tumani Oxunboboyev shaharchasi standart 2ta basseyn biri ochiq isitilmaydigan mavjud. Viloyatning Izbosgan tumani Paytug shahrida 2ta isitilmaydigan basseyn mavjud va barcha kollej qoshida standart basseyn sportchilar ixtiyorida.

Viloyatning Ulug'kor tumani markazi Oqoltin posyolkasida atigi bitta isitilmaydigan basseyn va suniy ko'l tuman suzuvchilari ixtiyorida. Viloyatning Marhamat shahrida maktab qoshida 1ta usti ochiq standart basseynlar mavjud.

Viloyatning Oltinko'l tumani suzuvchi sportchilari va maktab uquvchilari markazdagi 1ta basseyn va 1ta suniy ko'l, 1ta kanaldagi suzish mashg'ulotlari uchun foydalilanildi. Viloyatning Paxtaobod tumani Paxtaobod shahrida ham 1ta usti ochiq basseyn va bir necha suniy hovuzlar maktab o'quvchilari xizmatida.

Xujaobod tumani Xujaobod shahri bitta standart yozgi basseyn va suniy hovuz bir necha kanalchalar suzish imkonini beradi. Shaxrixon tumani markazi Shaxrixon shaxrida 1ta basseyn, suniy ko'l va ariqlar mavjud.

Qo'rqontepa tumani markazi Qo'rqontepa shaxrida suzish sportiga yaxshi e'tibor berilgan. Y yerda standart basseynlar mavjud bo'lib maktab o'quvchilari yoz kunlari aniq va sun'iy hovuzlardan ham foydalanishadi.

Buxoro viloyat Buxoro shaxri suzish sharoitiga mustaqillikka erishganimizdan keyin ayniqsa Buxoroda o'ztkazilgan O'zbekiston Oliy o'quv yurtlari sport musobaqalari "Universiada 2002" o'tkazilish arafasida juda katta e'tibor berila boshlandi.

To'g'ri sobiq ittifoq davrida hali juda ko'p suzish sport inshootlari qurilgan edi. Masalan: "Komsomol ko'li" hududida qurulgan 25x8m (chuqurligi 3 m) basseyn, uch pog'onali suvgaga tramplindan saskrash qurilmalari balandligi 12m, suvning chuqurligi 5m/ 11 maktab internat huzuridagi usti ochiq basseyn, Buxoro gazpromstroyga qarashli "Chayka" suzish kompleksi, "Delfin" yozgi basseyni, hamda "Semurg" sport kompleksi hududida zamonaviy isitiladigan usti yopiq basseynlar mavjud edi. Mustaqillik davrida esa elektr tarmoqlari korxonasiqa qarashli suvi isitiladigan "Nurchi" suzish basseyni ishga tushirildi. "Universiada 2002" arafasida "Semurg" sport suzish kompleksi ham tubdan ta'mirlanib jaxon

standartlariga mos holda keltirildi. “Semurg” sport kompleksidagi suzish basseyni 8x25 bo’lib 5 yo’nalishga ishlash vaqtida doimo suvning issiqlik darajasini +28+29° ushlab turuvchi moslamalar o’rnatilgan.

Albatta “Nurchi”, “Chayka”, “Semurg” yaqinida foydalanishga topshirilgan neft va gaz sanoati kollej qoshidagi “Basseyn” qishin – yozin ishlab suzuvchi sportchilarning sport mahoratlarini oshirishga xizmat qilmoqda. Internat maktabdagi basseyn “Delfin” usti ochiq basseyn, madaniyat sporti qoshidagi kuchli basseyn, “Buxoro” mehmonxonasiga qarashli basseyn, Istirohat bog’idagi “Kichik ko’l”, Ulug’bek nomli istirohat bog’idagi “Katta ko’l” yozning issiqlari kunlari sportchi yoshlari bilan gavjum. Hozir Buxoro viloyatida suzish federatsiyasi tuzilib unga Viloyat elektr tarmoqlari korxonasi boshlig’i rais etib saylangan. Viloyatda suzishni rivojlantirish ishlariga Viloyat elektr tarmoqlari korxonasi, hamda ODSP-6 kadastr boshqarmasi homiylik qilmoqda. Buxoro viloyatining Buxoro tumanida ham suzish shartiga e’tibor yaxshi, tuman markazi Galaosiyo shaxrida xam 2ta basseyn mavjud. Kasb-hunar kolleji qoshida yangi zamonaviy basseyn (mavsumiy) qurilgan. Buxoro tumaniga qarashli madaniyat jamoa xo’jaligi markazida yoshlarni o’ziga jalb etuvchi sun’iy suzish havzasi qurilgan. U unchalik zamonaviy bo’lmasada, suzish sportiga qiziquvchilarni ehtiyojini mavsumiy qo’ydira oladi. Viloyatning Vobkent tumani markazida ham ikkita suvi isitilmaydigan mavsumiy basseynlar mavjud bo’lib unda V-IX oylari qiziquvchilar shug’ullanishadi.

Jondor tumani markazi Jondor shaxrida atigi birta suzish havzasi bo’lsada,

tuman hududida ariqlar, hovuz va kanallarga boy. Har bir maktab jismoniy tarbiya o'qituvchisi yilning o'quv rejasidagi suzish darslarining bemalol mahalliy sharoitdan foydalanib tabiiy suv havzalaridan foydalanib o'tish mumkin.

Kogon tumani markazi Kogon shaxrida ham 2 ta biri xalq maorif bo'limiga va biri harbiy qismga qarashli suzish basseynlari mavjud. Ikkalasi ham mavsumiydir. Olot tumani markazi Olot shaxri hududida birta suzish basseyn mavjud. Lekin tuman hududida birta suzish basseyni mavjud. Lekin tuman hududida suzish sporti bilan shug'ullanishi uchun mos bo'lgan ariq va kanallar ko'p.

Viloyat tumanlari markazlaridagi Yangi bozordagi 1 ta, Romitan tuman romitan shaxrida 2 ta , Shofirkon shaxrida 1 ta Qorako'l tumani Qorako'l shahridagi 2 ta, Qorovulbozor shaxrida 1 ta, G'ijduvon tuman markazi G'ijduvon shaxrida mavjud.

Respublikamizning Jizzax viloyatida ham suzish sportiga katta ahamiyat berilgan. Viloyat markazi Jizzax shaxrida shu paytgacha 2t mavsumiy 1ta isitiladigan mavjud bulgan bulsa, „Umid nihollari” musobaqalari utkazilishi bilan yana yangi tipdag'i standart suzish basseyni foydalanishga topshirildi. Viloyatning Baxmal tumani iqlim sharoitiga mosligi shu tufayli bu tumanda bir nechta oromgohlal tashkil qilinib ularning har birida 1-2tadan mavsumiy basseynlar qurilgan. Viloyatning Dustlik, Zarbdor, Zomin, Togarin, Paxtakor, Gallakor shaharchalarida ham kamida 1tadan mavsumiy standart basseynlar qurilgan.

Respublikamizning Navoiy viloyati markazi bulgan Navoiy shahrida ayniqsa sportga katta etibor berilganki uni tilga olib utmasdan iloji yuq. Shahar markazida

„Delfin” suzish markazi tashkil qilinganini unda yuzlab suzuvchi sportchilar yetishib chiqqanini ular orasida I-razryadlardagi X.T. sport ustalari ham bor. Sport inshootlariga kelsak usti yopiq va usti ochiq isitiladigan basseynlar ham bor. Navoiy shahridagi suzish sporti inshootlari, suzishga bulgan etiborni hisobga olib, Respublika olimpiya rezervlari suzish maktabi tashkil qilingan. Viloyatning Koshimex tumani viloyatdan ancha uzoq(100km) chul zonasida joylashganligi tufayli tuman markazida atigi suzish basseyn mavjud. Navoiyning Tomdi tumani usha chul zonada joylashgan. Tuman markazi Tomdibuloq aholi nasos suvi bilan tuldiriladigan basseyn mavjud. Har holda mavsumiy suzish basseyni deb hisoblasa buladi.

Tumanning Nutota tumani markazi Nurom shahrida deyarli suzish havzalari yuq, chunki shahar togli joyda joylashganligi sababli oqar yoki kanallar yuq. Lekin Qizilcha shahar hududigacha „Haydarkul” chuzilib kelgan. „Haydarkul” atrofida yashovchi aholi mavsumiy davrda suzish bilan shugullanishadi. Navoiyning Uchquduq tumanida 2ta standart basseyn mavjud. Uchquduq tumaniga qarashli „Zarafshon” shahrida 3ta basseyn bulib shulardan bittasi zamonaviy tipdagi usti yopiq suvi isitiladigan standart basseynlardandir.

Respublikamizning Namangan viloyati ham Andijon singari Fargona vodiysida joylashgan. Vodiyda kuplab dayolar kanallar, suv omborlari bulganligi sababli viloyatning tumanlaridagi qishloqlarninh kupchiligi yonidan ariqlar kanallar oqib o’tadi, har qalay suniy basseynlar bulmasada bu tabiiy suv havzalari va kanallardan yozda suzish uchun imkon qadar foydalanishadi. Namangan shahrining uzida albatta suzish sportiga avvaldan etibor berilgan edi. 2000yilda

utkazilgan „Namangan 2000” Universiadasi munosabati bilan bitta zamonaviy mavsumiy basseyyn va bitta zamonaviy suvi isitiladigan standart basseynlar qurib suzuvchilar ixtiyoriga topshirilgan, avvalgi qurilgan 3ta mavsumiy basseynlar qayta tamirlandi. Namanganda ham suzish federatsiyasi tashkil qilingan. Suzish bo'yicha sport murabbiylarining sa'y harakatlari tufayli bir necha o'nlab yetuk suzuvchilar yetishib chiqdi vsa chiqmoqda. Namangan viloyatining Kosonsoy tumani markazida Kosonsoy shaxrida 1ta, Mignbulloq tumani jomashoy shaharchasida 1ta, Namangan tumani Toshbuloq shaharchasida 1ta, Noriy tumani Xaqqulobod shahridagi To'raqo'rg'on shaxrida, Uychi tumani markazi Uychi chaharchasida 1 ta, Uchqo'rg'on tumani Uchqo'rg'on shahrida 2ta, Chortoq tumanidagi Chortoq shaxrida oromgohdagilar bilan hisoblaganda 3 ta standart basseynlar bor. Chust tumanida tog'li joyda joylashganligi bois deyarli suzish havzalari yo'q.

Samarqand viloyati ham o'zining so'lim joylari, daryo, ariq, kanallari bilan boshqa viloyatlardan ajralib turadi. Viloyatda suzish sportiga juda katta e'tibor berilgan. Qariyb 80 yil muqaddam ya'ni 1928 yilda o'tkazilgan suzish bo'yicha birinchilik musobaqalari avvaldan bu voha xalqining suzishga bo'lgan qiziqishidan dalolat berib turadi. Hozir Samarqand shahrining o'zida maktab va internatlar qoshida 6 ta mavsumiy basseynlar, 4 ta suvi isitiladigan standart basseynlar mavjud edi. Ya'ni o'tkazilgan “Universiada 2004”da Samarqand shahrida “Sug'diyona” suzish kompleksini qurib topshirgani, bu jaxon standartlariga mos keladigan suvi isitiladigan usti yopiq standart basseynlardir. Bu maskan o'zida kiyinish xonalari dush xonasi, quruqlikdagi mashg'ulot

xonalari va 8 yo'lakchali suzish basseynini o'z ichiga oladi. Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on shaxri suzish sportiga e'tibor juda katta bo'lgan shahar ichidan o'tgan ikkita katta kanalning mavjudligi, undan tashqari 2 ta mavsumiy basseynlarning qurilganligi, qolaversa yozda aholining asosiy dam olish maskani hisoblangan 645 million kubometr sig'imli Kattaqo'rg'on suv omborining mavjudligidir. Kattaqo'rg'on shahri tub aholining ichida suzishni bilmaydigan bironta kishi topilmasa kerak.

Nurobod tumani markazi Nurobod shahrida ham suzuvchilar ixtiyorida birta katta sun'iy ko'l va qurib topshirilgan zamonaviy basseyn mavjuddir. Unda bir necha o'nlab yoshlar suzish sporti bilan shug'ullanishi, Samarqandning Ishtixon tumanida markazida 1ta, Narpay tumani Oqtosh shahrida 1 ta, Oqdaryo tumani Loyish shaharchasida 1ta, Pastdarg'om tumani Juma shahrida 1 ta internat maktabi qoshida va 1ta sport qo'mitasiga qarashli mavsumiy basseynlar ishlab turibdi.

Respublikamizning Sirdaryo viloyatida ham suzish sporti jonlangan. Bunga viloyatdagi suv omborlari, daryo, ko'l, suv havzalarining yaqinligi bo'lsa, ikkinchidan hukumatimizning suzish sportiga e'tibori kattaligidadir. Ya'ni Guliston shahrini o'zida qurilgan ikkita mavsumiy basseynlar va Nurchilar tomonidan qurib topshirilgan zamonaviy "Nurchi" suzish sporti kompleksidir. Hozirgi vaqtda Sirdaryoning Bayovut tumani markazida Bayovut shahrida 1ta, Guliston tumani markazi Dehqonobod, shharchasida 1ta, Mehnatobod tumani markazida 1ta, Mirzaobod tumani markazi Navro'z a/nda 1 ta, Oqoltin tumani markazi Sardobida 1ta, Sayxunobod tumani markazi Sayxun shaharchasida 1ta,

Sirdaryo tumani markazi Sirdaryo shahrida 2 ta, Havos tumani markazi Farxod a/nda 1 ta , Sh.Rashidov tumani markazi Paxtobod shaxarchasida 1 ta mavsumiy basseynlar hozirgi kunda suzuvchilar ixtiyorida.

Viloyatlar ichida Surxandaryo viloyati geografik joylashuvi bilan ajralib turadiki, ba'zi tumanlari tekislikda joylashgan bo'lsa, ba'zilari tog'li hududda joylashgan. Shuning uchun ba'zi tumanlarida suzish sportini tashkilqilish ancha mushkul. Viloyat markazi Termiz shahrida suzish sportiga juda katta e'tibor berilgan 2-3 mavsumiy basseynlardan tashqari harbiylar shug'ullanadigan basseynlar bilan birgalikda 3 ta zamonaviy usti yopiq basseynlar faoliyat ko'rsatib turibdi. Surxandaryo viloyatining Angor tumani Angor surxonchasida 1ta, Denov tumani markazi Denov shahrida 2ta, Jarqo'rg'on tumani markazi Jarqo'rg'on shahrida 1ta, Muzrabot tumani markazi Xalqobod a/nda 1 ta basseyn, 1ta sun'iy ko'l, Oliyjanob tumanidagi Qurduq a/nda 1ta, Sarosiyo tumanidagi uch qizil a/nda 1ta, Sherobod tumanidagi Sherobod shahrida 2 ta, Sho'rchi tumanidagi Sho'rchi shaxrida 1ta, Qumqo'rg'on shahrida 1ta basseyn, 1ta sun'iy ko'l yosh sportchilar shug'ullanishi uchun topshirilgan.

Respublikamiz poytaxti Toshkent va Toshkent viloyati tumani, shaharlardagi suzish sporti inshootlari bilan tanishib chiqsak, avvalo hozir hisobga olingan maktab va sport-maktab internatlari qoshidagi o'nlab mavsumiy basseynlarni kurishimiz mumkin. Hozirgi vaqtda zamonaviy suvi isitiladigan, usti yopiq suzish maskanlarini olsak avvalo Uzbekiston jismoniy tarbiya institutiga qarashli suzish kompleksi maqtovga sazovordir. Bu 50\*10m ulchamdag'i standart suzish basseyn bulib, hamma qulayliklari bilan ajralib turadi. Toshkent Irrigatsiya instituti qoshida

qurib foydalanilayotgan suzish basseyni ham suvi isitilishi, qulayliklari bilan jahon standartiga mos boshqa basseynlardan qolishmaydi. Lekin hozir Toshkent shahrida qurib foydalanishga topshirilgan olimpiya rezervlari suzish kompleksiga tarif yuq. Chunki u 8 suzish yulakchasiidan iborat, hamma qulayliklarga ega bulgan yagona maskan. Toshkeny viloyatining Angren shahrida suzish sporti ancha jonlangan. Angren Davlat Pedagogika instituti huzurida bitta suzish basseyni talaba sportchi suzuvchilar ixtiyorida bulsa, „Shaxtyor” suzish kompleksi esa ancha zamonaviy uslubda qurilgan standart, suvi isitiladigan usti yopiq basseyndir, bu suzish kompleksida kuniga 3mahal mashgulotlar utkazilib kuniga 60sportchiga shugullanish imkonini bermoqda. Metallurglar shaharchasi Bekobodda ham suzish sportiga etibor ancha yaxshi, bu shaharchada ham ikkita mavsumiy standart basseynlar va bitta suvi isitiladigan zamonaviy basseyn yosh sportchilarga foydalanishi uchun topshirilgan. Shuningdek Toshkent viloyatining Chirchiq shahri, Olmaliq shahrida, Ohangaron shahrida, Yangiobod, Yangiyul shaharlarida ham mavsumiy basseynlar ishlab turibdi. Viloyatning Nurobod shahri hududida esa mavsumiy basseynlardan tashqari kattagina Nurobod suv ombori borki yoshlar u yerda dam olish bilan birgalikda suv sporti bilan ayniqsa mavsumiy kuproq shugullanishadi. Bekobod tumani markazi Zafar shaharchasida, Kuna tumani markazida Kuna shahrida Bustonliq tumani hududida joylashgan bir necha oromgohlar hududida qurilgan o’nlab standart mavsumiy basseynlar qurilgan va undan foydalanishmoqdalar. Fargona viloyati yuqorida aytib utganimizdek uzining iqlim sharoiti ariq, anhor, kanallarining kupligi, hatto tumanlardagi qishloq bolalarining ham suzish bilan shugullanish imkoniyatlari bor. Shu jumladan viloyat

markazi Fargona shahrida ham suzish sporti va suzish inshootlariga yaxshi etibor berilgan, shahar hududida 4ta mavsumiy va 2ta suvi isitiladigan zamonaviy basseynlar bor. Ularda yuzlab fargonalik yoshlar shugullanishi uz sport mahoratlarini oshirishmoqdalar. Viloyat tuman markazlarida ham suzish sportiga etibor yomon emas, Margilon shahrida 2ta, Quqon shahrida 2ta mavsumiy 1ta suvi isitiladigan, Bogdod shaharchasida 1ta, Beshariq shahrida 1ta, Yangiqurgonda 1ta, Dangara shaharchasida 1ta, Rishton shahrida 2ta mavsumiy basseynlar ishlab turibdi.

Respublikamizning Xorazm viloyatida suzish inshootlarining ahvoli ham yomon emas, chunki shu vaqtgacha viloyat markazida 3-4ta mayda basseynlar bilan birgalikda 1ta suvi isitiladigan basseyn bor edi. 2003 yil Xorazm viloyatida o'tkazilgan O'MT talabalari o'rtasida o'tkazilgan "Barkamol avlod" musobaqalari munosabati bilan 8x25 o'lchamdagি hamma sharoitlari mavjud zamonaviy suzish basseyni qurib yoshlar ixtiyoriga topshirildi. Shu jumladan viloyatning Bog'ot tumani Gurlan shaharchasida , Xiva shaxrida, Xonqa shaxarchasida, Shovot shaxri Yangi bozor shaxarchasida Xazorasp shaxarchasida ham xech bo'limganda birtadan mavsumiy basseynlar ishlab turibdi.

Respublikamizning Qashqadaryo viloyatida ham suzish sportiga e'tibor berilgan. Qashqadaryo viloyati hududi anhor, ariq, kanallarga serob. Shunday bo'lishi aholi yoshlarining suzish sportiga bo'lgan qiziqishini yanada orttiradi. Yoshlarning suzish sharoitiga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun vloyat markazida 3-4 mavsumiy basseynlar bo'lsada, mustaqillikka erishganimizdan keyin ikkita zamonaviy, standart, suvi isitiladigan basseyn qurib sportchi

yoshlarga topshirildi. Suzish sporti o'zining qiziqarliligi, chiroyliligi, sermazmunliligi bilan ustuvor sportlardan hisoblanadi. Shuning uchun 2000 yildan boshlab o'tkazilayotgan O'zbekiston Respublikasi Oliy o'quv yurtlari talabalari o'rtasida o'tkaziladigan "Universiada" sport musobaqalari dasturiga birinchilar qatorida kiritildi. Alovida suzish turlari bo'yicha alovida musobaqalar o'tkazilib natijalar, rekordlar ro'yxatga olingan. "Universiada" dasturining yildan yilga boyish bois 2000 yilda Namanganda o'tkazilgan "Universiada" suzish dasturidan 2002 yil Buxoroda o'tkazilgan "Universiada 2002" dasturi farq qiladi, albatta. 2004 yilda Samarqand shahrida o'tkazilgan "Universiada 2004" avvalgi ikkalasidan farq qiladi. "Universiada 2004" musobaqalarida yigit va qiz suzuvchilar uchun quyidagi usul, tur va masofalar belgilangan. Yigitlar: 50m, 100m, 200m erkin usulda, 50m, 100m brass usulida, 50m, 100m butterflyay usulida suzish.

200m ga aralash suzish. Bu aralash suzishda bir sportchi 200mni standartga suzish usuli bo'yicha suzib o'tish kerak, albatta har bir etapda musobaqa qoidasiga binoan ma'lum suzish usuli bilan. Masalan, har bir ishtirokchi birinchi 50 metrni butterflyatsiya, ikkinchi 50 metrni brass usulida, uchinchi 50 metrni chalqancha usulda, to'rtinchi 50 mni krol usulida suzib o'tishlari shart.

4x100 mga aralash estafeta. Bu aralash estafetada bir komandanadan to'rt kishi ishtirok etadi va yuqorida aytilganidek har bir kishi bir etapdagi masofani alovida bir sportga suzish usuli bilan suzib o'tadi. Masalan: birinchi ishtirokchi birinchi masofani orqada suzish usulida, ikkinchi ishtirokchi ikkinchi masofani brass usulida, uchinchi ishtirokchi masofani butterflyay usulida, to'rtinchi ishtirokchi

so'ngi masofani krol usulida suzib o'tish shart. O'zining boshlang'ich suzish malakasini shu yerda oshiradilar. Albatta zamonaviy suzish kompleksi deganda kiyinish xonasi, dush xonasi bor, o'lchami 8x25m, 8,10x50mli suvi qishin-yozin isitiladigan usti yopiq basseyni tasavvur qilamiz. Yozgi mavsumiy basseynlar eni qancha bo'lishidan qat'iy nazar 9albatta kamida 5 m) uzunligi 25m yoki 50m bo'lgan bo'lishi kerak. Chunki uzunligi bundan hatto 1 metr ko'p yoki kam bo'lsa bunday basseynlarda suzish musobaqalarini also o'tkazib bo'lmaydi. Chunki musobaqalarning suzish masofalari 50 metrdan boshlanib 50m, 100m, 200m, 400m va hakozo davom etadi. Qishloq sharoitida oddiy suzish havzalarini ko'rish uchun oddiy o'lchami to'g'ri keladigan hovuzlardan ikki ipga cho'kmaydigan pupaklar kiygizib suzish yo'lakchalari hosil qilib undan bemalol foydalanish mumkin.

Viloyatning Kasbi tumani markazida , Koson tuman markazida, Muborak tumani markazida, Nishon tumani markazida, Shaxrisabz shaxrida, Qamashi shahrida, Beshkent shahrida G'uzor shaxrida mavsumiy standart basseynlar mavjud.

Qoraqolpog'iston hududida joylashgan respublikaga buysunuvchi shaharlarning deyarli hammasida-Beruniy, Taxmontosh, To'rtko'l, Chimboy, Qo'ng'irot shaharlarida mavsumiy basseynlar mavjud. Nukus shahrining o'zida mavsumiy basseynlar mavjud bo'lgan bo'lsa, mustaqilikka erishganimizdan keyin "Universiada", "Barkamol avlod", "Umid nihollari" musobaqalari munosabati bilan zamonaviy standart basseynlar qurib sportchi yoshlarga topshirildiki, ularda

hozirgi kunda yuzlab yosh sportchilar musobaqalari o'tkazilib, o'z sport mahoratlarini oshirmoqdalar.

Umuman olganda Respublikamizning viloyatlariga qarashli barcha tumanlarida 1ta albatta bu yerda tog'li hududlar –Nurota, Urgut, Denov, cho'l zonalari Zarafshon tumani zamонави сузиш сув havzalari bo'lmasa suv omborlari, ariq, kanal, daryolar mavjud. Azal –azaldan ming-minglab alpomish kelbat o'g'lonlaru, barchinsuvrat qizlarga jonajon Vatan bo'lgan bu aziz tuproq bag'rida nafas olib, ulkan orzular bilan yashayotgan yosh avlod, bugun O'zbekistonimizni jaxoning eng taraqqiy etgan davlatlari qatoriga olib chiqmoqda. Ayniqsa, sportchi yoshlarimiz bu borada yetakchilarga aylanib ulgurishdi. Ularning erishayotgan muvaffaqiyatlari qalbimizga faxr-iftixor baxsh etib, buyuk keljakka bo'lgan ishonchimizni mustahkamlamoqda.

O'zbekistonda suzuvchilar terma jamoasi boshlig'I Saida Iskandarova, Yulduz Qo'chqorovalar jaxon arenasiga chiqqanlar. Moskva shaxrida o'tkazilgan Rossiya ochiq championatida ishtirok etgan sportchimiz Ra'noxon Omonova 400 metrga erkin suzishda 4.18,97 daqiqa natija ko'rsatib, marraga ikkinchi bo'llib yetib keldi va Ukraina, Qozog'iston hamda Qирг'изистон vakillari ham qatnashgan ochiq birinchilikning kumush medalini qo'lga kiritdi.

Xalqaro toifadagi sport ustasi, suzish bo'yicha o'smirlar o'rtasida jahon championi Shoxruh Yunusov ham yurtimiz dovrug'ini dunyoga taratayotgan ana shunday istiqbolli yoshlarimiz sirasidan. Shoxruh Yunusov 2009 yildan buyon sportning triathlon turi bilan shug'ullanmoqda. Bunda murabbiylari –Leonid Blokxin va Vyacheslav Rastriginlar katta yordam berayapti. O'tgan davr

yordamida ushbu sport turi bo'yicha o'tkazilgan bir qator xalqaro musobaqlarda muvaffaqiyatli ishtirok etdi. Jumladan, 2009 yili Tailand va Singapur davlatlarida bo'lib o'tgan Osiya kubogi bahslarida va 2010 yilda Janubiy Koreyaning Tongyong shahrida o'tkazilgan jaxon chempionativa Inchixon shahrida faxrli o'rirlarni egalladi. Ayni vaqtda u Respublika mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotiga qarashli sport klubida yaqinda Tailandda bo'lib o'tadigan Osiyo kubogi musobaqlariga astoydil tayyorlik ko'rayapti.

## **2.1. Suzish sportini "Barkamol avlod" musobaqalari dasturiga kiritilishi**

"BARKAMOL AVLOD" SPORT O'YINLARI — O'zbekistonning kasb-hunar kollejlari va akademik litseylari o'quvchilari o'rtaida o'tkaziladigan ommaviy sport musobaqalari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 10 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va o'tka-zish to'g'risida"gi qarori (2001 y. 19 yanvar) asosida tashkil etilgan hamda "O'quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to'g'risida"gi (2003 y. 3 iyun) qaroriga binoan respublika final bosqichlari 3 yilda bir marta o'tkazilishi belgilangan. Maqsadi — o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimidagi o'quv muassasalaridagi o'quvchi yoshlarni jismonan yetuk, axloqan barkamol va vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, iqtidorli sportchi yoshlarni nufuzli musobaqalarga tayyorlash, yoshlar o'rtaida jismoniy tarbiya va sportni yanada ommaviylashtirish.

"Barkamol avlod sport o'yinlari" s.o'.da badiiy gimnastika, basketbol, boks, voleybol, gandbol, yengil atletika, stol tennisi, suzish, tennis, futbol kabi olimpiada o'yinlari dasturiga kirgan va shaxmat, belbog'li kurash, kurash singari ommalashgan sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkaziladi. Saralash musobaqalari o'quv yurti, tuman, shahar va viloyatlarda, respublika final bosqichi bitta hududda tantanali ravishda tashkil etiladi. Respublika final bosqichlari ilk bor Jizzax (2001), so'ngra Andijon (2003) va uchinchisi Toshkent (2005) viloyatlarida bo'lib o'tdi. Uchinchi "Barkamol avlod sport o'yinlari" saralash musobaqalarida 645 mingdan ziyod, uning final bosqichida 2170 nafar o'quvchi qatnashdi (2005).

“Barkamol avlod” sport o‘yinlari akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari orasida 2001-yildan buyon o‘tkazilib kelinmoqda. Birinchi Respublika final bosqichi Jizzax viloyatida o‘tkazilgan. 2004-yildan boshlab ushbu sport musobaqasining Respublika final bosqichlari uch yilda bir marta o‘tkazilib kelinmoqda.

“Barkamol avlod” sport o‘yinlari o‘tkazilgan hamda o‘tkazilishi rejalashtirilgan hududlar ro‘yxati:

- 2001 – Jizzax
- 2003 – Andijon
- 2005 – Toshkent
- 2008 – Qoraqalpog‘iston
- 2011 – Surxondaryo
- 2014 – Namangan
- 2017 – Jizzax
- 2020 – Qashqadaryo
- 2023 – Sirdaryo

Ma’lumot uchun: O‘zbekiston o‘quvchi va talaba yoshlarining “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va “Universiada” sport musobaqalarining respublika final bosqichlarini o‘tkazish rejasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 3-iyundagi hamda 2009-yil 29-iyundagi Qarorlari asosida tasdiqlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 27 maydagि «O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 271- sonli qarori ijrosini bajarish maqsadida Oliy va o‘rtta maxsus ta’lim vazirligi O‘rtta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimidagi ta’lim muassasalari o‘quvchi-yoshlarining o‘rtasida 3 yilda bir marta «Barkamol avlod» sport musobaqalari tashkil etilgan.

“Barkamol avlod” sport musobaqalari o‘rtta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida ta’lim-tarbiya olayotgan o‘quvchi-yoshlarni jismoniy yetuk va ahloqiy barkamol, Vatanga sadoqat ruhida komil inson qilib tarbiyalash, jismoniy tarbiya, sog‘lomlashtirish va ommaviy sport ishlarini zamon talablari darajasida rivojlantirishni amalga oshirish, milliy sport turlariga yoshlarni qiziqishi va e’tiborini kuchaytirish, o‘quvchi-yoshlarning darsdan tashqari bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri mazmunli tashkil etish, jamoa bo‘lib harakat qilish, g‘alabaga intilish ishtiyoqlarini kamol toptirish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va samaradorligini oshirish maqsadida o‘tkaziladi.

**2001 yil** ta’lim muassasalarida 1-bosqich musobaqalarida **400000** minga yaqin, musobaqalarning 2-bosqichida **150** minga yaqin o‘quvchi-yoshlar ishtirok etgan. O‘rtta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida “Barkamol avlod” sport musobaqalari 2001 yilda birinchi marta Jizzax viloyatida 30 apreldan 5 maygacha sportning **8** ta turi bo‘yicha (basketbol, voleybol, futbol, yengil atletika, milliy kurash, belbog‘li kurash, tennis va suzish) o‘tkazilib, unda **1890** nafar (qizlar **560**

nafar, o'smirlar **980**, murabbiylar **280** nafar, hakamlar **266** nafar) o'quvchi-yoshlar ishtirok etishdi.

**2003 yil** ta'lim muassasalarida musobaqalarning 1-bosqich musobaqalarida **420000** mingdan ortiq, musobaqalarning 2-bosqichida 180 mingdan ortiq o'quvchi-yoshlar ishtirok etgan.

**2003 yilda** Andijon viloyatida 5 iyundan 11 iyungacha sportning **14 ta** turidan (basketbol, voleybol, futbol, qo'l to'pi, yengil atletika, milliy kurash, belbog'li kurash, tennis, stol tennisi, shaxmot, badiiy gimnastika, og'ir atletika, boks va suzish) o'tkazilib, unda **2786** nafar o'quvchi-yoshlar ishtirok etishgan (har bir viloyatdan **199** nafar, shundan qizlar **812** nafar).

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2003 yil** 3 iyundagi 244-sonli «O'quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzlucksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to'g'risida»gi qarorida jamiyatimizda sog'lom turmush tarzi tamoyillarini yanada kuchaytirish, mamlakatimizda o'quvchilarni sport mashhg'ulotlariga uzlucksiz jalb qilishga qaratilgan sport musobaqalari tizimini samarali ishlashini ta'minlash maqsadida musobaqalar har uch yilda bir marta o'tkaziladigan bo'lgan.

**2005 yil** ta'lim muassasalarida musobaqalarning 1-bosqich musobaqalarida **545000** mingdan ortiq, musobaqalarning 2-bosqichida 200 mingdan ortiq o'quvchi-yoshlar ishtirok

etgan.



**2005 yil** 24 maydan 29 maygacha Toshkent viloyatida o‘tkazilgan «Barkamol avlod» sport musobaqalarining Respublika final bosqichi sportning 13 ta turidan (basketbol, voleybol, futbol, qo‘l to‘pi, yengil atletika, milliy kurash, belbog‘li kurash, tennis, stol tennisi, shaxmot, badiiy gimnastika, boks va suzish) o‘tkazilib, undagi ishtirokchilar soni **2898** nafarni tashkil etdi (har bir viloyatdan **189** nafar, shundan qizlar **812** nafar, o‘smlilar **1568** nafar, murabbiylar **266** nafar va hakamlar **252** nafar).

**2008 yil** ta’lim muassasalarida musobaqalarning 1-bosqich musobaqalarida **610000** mingdan ortiq, musobaqalarning 2-bosqichida **200** mingdan ortiq o‘quvchi-yoshlar ishtirok etgan.

**2008 yil** 17-21 may kunlari Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘tkazilgan «Barkamol avlod» sport musobaqalarining Respublika final bosqichi sportning 12 ta turidan (basketbol, voleybol, futbol, qo‘l to‘pi, yengil atletika, milliy kurash, belbog‘li kurash, tennis, stol tennisi, shaxmat, badiiy gimnastika va suzish) o‘tkazilgan. Ishtirokchilar soni **2296** nafar, shundan qizlar **784** nafar, o‘smirlar **1106** nafar, murabbiylar **238** nafar va hakamlar **168** nafarni tashkil etgan.

**2011 yil** ta’limi muassasalarida 1-bosqich musobaqalarida ta’lim muassasalaridan **700** mingdan ortiq, 2-bosqichida **250** minga yaqin o‘quvchi - yoshlar ishtirok etgan.

Surxondaryo viloyatida O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchi-yoshlari o‘rtasida o‘tkazilgan “Barkamol avlod-2011” sport musobaqalari sportning 12 ta turi bo‘yicha **867** (513 nafar o‘g‘il bolalar, 354 nafar qizlar) nafar o‘quvchi sportchilar va 175 nafar murabbiylar, 195 nafar hakamlar, 130 nafar ommaviy axborot vositalari, 100 nafar xoreografiya guruhi, 80 nafar delegatsiya a’zolari va mehmonlar, 16 nafar mash’alani olib keluvchilar, jami bo‘lib 1563 nafar ishtirokchilar qatnashishgan. Har bir hududdan jamoalar tarkibi 142 nafarni tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 29 iyundagi “O‘quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilagn uzluksiz respublika sport musobaqalarini o‘tkazish to‘g‘risida”gi 181-sonli qaroriga asosan «Barkamol

avlod» sport musobaqalari 2014 yilda Namangan viloyatida o'tkazilishi belgilangan.

**2014 yil** ta'limi muassasalarida 1-bosqichida **810** ming nafardan ortiq, 2-bosqichida **260** mingdan ortiq o'quvchi-yoshlar ishtirok etgan.

“Barkamol avlod-2014” sport musobaqalarining respublika final bosqichi sportning 16 turi bo'yicha **996** nafar sportchilar, **654** nafar o'smirlar, **342** nafar qizlar, **224** nafar murabbiylar, **193** nafar hakamlar, **60** nafar ommaviy axborot vositalari xodimlari, 15 nafar sport federatsiyalarning vakillari, **45** nafar rahbarlar, **14** nafar ichki ishlar va **24** nafar sog'liqni saqlash xodimlari hamda **18** nafar, oshpaz, **82** nafar ofitsiantlardir, **360** nafar xoreografiya guruhi, jami **2031** nafar ishtirokchilar qatnashishgan.

Barkamol avlod sport o'yinlari mamlakatimizda joriy etilgan uch bosqichli sport tizimining o'rta bo'g'ini hisoblanadi. Musobaqa o'rta-maxsus, kasb hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari o'rtasida 2001 yildan buyon an'anaviy tarzda o'tkazilib kelinadi.

Yoshlik va barkamollik bayramiga ilk marotaba Jizzah shahri mezbonlik kilgan. Shu vaktgacha musobaka Andijon, Chirchik, Nukus, Termiz va Namangan shaxarlarida kutarinki kayfiyatda utkazilgan. Uning mamlakat boskichida tuman, shaxar, viloyat mikyosidagi bellashuvlarda uz iktidori va kobiliyatini namoyon etgan sara sportchilar katnashadi.

Musobakalarda ishtirok etgan yoshlarning iktidori va maxorati muntazam oshib borayotganini kuplab sportchilarimiz xalkaro maydonlarda salmokli yutuklarga erishayotganida xam kurish mumkin. Jumladan, shaxmatchi Nodira Nodirjonova, Xulkar Toxirjonova, badiiy gimnastikachi Komila Tuxtaeva, Veronika Yesipova, Ravilya Farxuddinova, yengil atletikachi Ruslan Kurbanov, Zarnigor Ortikova, suzish buyicha Uzbekiston rekordchisi Yulduz Kuchkorova, polvonlarimiz Rustam Umarov, Shaxboz Saidmurodov kit'a va jaxon mikyosidagi musobakalarda kup bor shoxsupaga kutarildi.

"Barkamol avlod-2017" sport uyinlarining mamlakat boskichi yana Jizzax shaxrida tashkil etilmokda. Agar dastlabki musobakada sportning 8 turi buyicha 1 ming 540 nafar ukuvchi katnashgan bulsa, joriy yilda 17 sport turi buyicha 2 ming nafarga yakin yosh sportchining ishtirok etishi kutilmokda.

Musobakalar Jizzax olimpiya zaxiralari kolleji, Jizzax politexnika instituti, ushbu institut koshidagi akademik lisey sport zallarida, futbol maydonlari, sport inshootlarida utkazildi.

## **2.2. “Barkamol avlod - 2017” sport musobaqalari natijalari**

Jizzaxda “Barkamol avlod – 2017” musobaqalariga qizg‘in tayyorgarlik ko‘rildi. Musobaqalar o‘tadigan asosiy inshootlarda qurilish-ta’mirlash ishlari yakunlandi, ishtirokchilar uchun yotoqxona va oshxonalar hozirlandi.

Birinchi Prezidentimiz tashabbusi bilan umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, oliy o‘quv yurtlari talabalari o‘rtasida o‘tkazib kelinayotgan uch bosqichli sport musobaqalari qatorida “Barkamol avlod” o‘yinlari alohida ahamiyatga ega. Ushbu an’anaviy musobaqa yoshlarni jismonan va ma’nana yetuk insonlar etib ulg‘aytirish bilan birga, ularda jamoa bo‘lib harakat qilish, g‘alabaga intilish ishtiyoqini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. “Barkamol avlod” musobaqalarining birinchisi ham 2001-yilda Jizzax viloyatida o‘tgan va unda sportning 8 turi bo‘yicha 1 ming 540 o‘quvchi ishtirok etgan edi. Jizzax “Barkamol avlod – 2017” musobaqasining mamlakat bosqichiga yana mezbonlik qildi. Musobaqada Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan 17 sport turi bo‘yicha 2 mingga yaqin yosh sportchilar ishtirok etishdi. “Barkamol avlod – 2017” musobaqalari Jizzax olimpiya zaxiralari kolleji, Jizzax politexnika instituti, ushbu institut qoshidagi akademik litsey sport zallarida, futbol maydonlari sportinshootlarida o‘tkazildi.

Sportning gandbol, stol tennisi, voleybol, taekvondo, dzyudo, erkin kurash, yunon-rum kurashi, badminton, tennis, og‘ir atletika turlari bo‘yicha musobaqalar o‘tkaziladigan Jizzax olimpiya zaxiralari kolleji katta sport zalida, suzish basseynida, gimnastika zali va oshxonasida qurilish-ta’mirlash ishlari yakuniga

yetdi.

Jizzax politexnika institutining futbol maydoni, ushbu institut qoshidagi akademik litseyning sport zali musobaqa uchun shay holatga keltirildi. Musobaqa ishtirokchilari joylashtirilishi rejalashtirilgan kasb-hunar kollejlarining yotoqxona va oshxonalarini tayyorlash ishlari ham jadal sur'atlarda olib borildi.

“Barkamol avlod – 2017” musobaqalariga tayyorgarlik ko‘rishda 1 akademik litsey va 5 o‘rta maxsus, kasb-hunar kollejida katta hajmda qurilish-ta’mirlash, obodonlashtirish ishlari olib borildi – Musobaqalar o‘tkazilishi belgilangan ta’lim muassasalariga 11 milliard 200 million so‘mdan ziyod mablag‘ ajratilib, sport inshootlari moddiy-texnik bazasini zamon talablari darajasiga yetkazishga alohida e’tibor qaratilmoqdi.

Bugun mamlakatimizda xar bir sport musobaqasini, hoh u xalqaro hoh u respublika miqyosida bo’lsin, bayramdek kutib olish an'anaga aylangan. Bu nafakat mamlakatimizning jahondagi nufo’ziga nufo’z qo’shami, balki shuning bilan birgalikda, yurtimizda sportning ommalashuviga, yangidan-yangi sport inshootlari va infra to’zilmalarining yaratilishiga xizmat qiladi. Eng asosiysi, bunday tadbirlarni munosib kutib olish, ularga tayyorgarlik kurish jarayoni yurtimizning yanada obod va ko’rkam ko’rinishga ega bo’lishiga sabab bo’ladi. Shu ma’noda, mamlakatimizda sportning uch bosqichli tizimi shakllantirilganki, ular bugun yoshlarimizning jaxon arenalarida yuksak natijalarni q’o’lga kiritishlarida ulkan tajriba maktabi vazifasini o’tamoqda. Shu jumladan "Barkamol avlod" sport musobaqlari haqida xam shunday fikrlarni bildirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2009 yil 29 iyundagi "O'quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan o'zluksiz respublika sport musobaqalarini o'tkazish tugrisida"gi 181-sonli qaroriga asosan 2017 yil may oyida Jizzax shaxrida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchi-yoshlar o'rtasida "Barkamol avlod-2017" sport musobaqalari o'tkazilishi belgilangan edi. Shuningdek, 2017 yil 5 aprel kuni Jizzax viloyati xokimining birinchi urinbosari U.Mustafaev raxbarligida tasdiqlangan 17 ta Ishchi gurux raxbarlari bilan mazkur sport bayramiga tayyorgarlik ko'rish va bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lган dolzarb vazifalar bo'yicha yig'ilish utkazilib, tegishli ko'rsatmalar berildi.

Shu munosabat bilan Jizzax shaxrida "kichik olimpiada"ni yuksak saviyada o'tkazish uchun katta kulamdag'i ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 17 ta sport turi buyicha jami 898nafar (shundan 328 tasi qizlar) sportchilar, 236 nafar murabbiylar, 173 nafar hakamlar, 100 nafar OAV xodimlari ishtirok etadigan final bosqichini yuksak saviyada o'tkazish uchun viloyatimiz markazi bo'lган Jizzax shaxridagi mavjud sport maydonlari, inshootlari, ko'chalar, o'quv yurtlari va ularning yotoqxonalari to'liq ta'mirlandi, qayta jihozlanib, musobaqalarni o'tkazishga va ishtirokchilarni qabul qilishga tayyor xolga keltirildi.

Xususan, mazkur musobaqa o'yinlari "So'g'diyona" sport majmuasi, Jizzax Olimpiya zaxiralari, Jizzax Politexnika instituti hamda mazkur institut qoshidagi 1-son akademik litseyi sport inshootlarida bulib utdi. Shuningdek, bir qator sport turlari o'tkaziladigan joylar mazkur sport inshootlari xususiyatlaridan kelib chikkan xolda taksimlab chikildi.. Jumladan, "So'g'iyona" sport majmuasida

sportning boks (32 nafar o'g'il bola), so'zish (56 nafar o'g'il bola, 56 nafar qiz bola), badiiy gimnastika (28 nafar qiz bola), yengil atletika (56 nafar o'g'il bola, 56 nafar qiz bola) turlari bulib utsa, Jizzax Olimpiya zaxiralari sport kollejida esa basketbol (32 nafar o'g'il bola, 32 nafar qiz bola), kul tupi (40 nafar o'g'il bola, 40 nafar qiz bola, 4 tadan jamoa), badminton (14 nafar o'g'il bola, 14 nafar qiz bola), stol tennis (14 nafar o'g'il bola, 14 nafar qiz bola), ogir atletika (56 nafar o'g'il bola), erkin kurash (42 nafar o'g'il bola), yunon-rum kurashi (42 nafar o'g'il bola), taekvondo vtf (28 nafar o'g'il bola, 28 nafar qiz bola), dzyu-do (42 nafar o'g'il bola), tennis (14 nafar o'g'il bola, 14 nafar qiz bola) kabi sport turlari buyicha ishtirokchilar bellashuv olib bordilar. Jizzax Politexnika instituti sport inshootida futbol (56 nafar o'g'il bola, 4 ta jamoa) va voleybol (32 nafar o'g'il bola, 32 nafar qiz bola, 4 tadan jamoa), mazkur institut koshidagi 1-son akademik liseyi sport binosida esa shaxmat (14 nafar o'g'il bola, 14 nafar qiz bola) buyicha musobaqalar bulib utdi. Xududlar kesimida olinganda Korakalpogiston Respublikasidan 69 nafar, Andijon viloyatidan 82 nafar, Buxoro viloyatidan 48 nafar, Jizzax viloyatidan 65 nafar, Navoiy viloyatidan 52 nafar, Namangan viloyatidan 69 nafar, Samarkand viloyatidan 64 nafar, Sirdaryo viloyatidan 45 nafar, Surxondaryo viloyatidan 46 nafar, Toshkent viloyatidan 47 nafar, Fargona viloyatidan 75 nafar, Xorazm viloyatidan 74 nafar, Kashkadaryo viloyatidan 76 nafar, Toshkent shaxridan 86 nafar sportchi g'oliblik uchun kurash olib bordi.

Bundan tashqari, mazkur musobaqa ishtirokchilarini turar joy, transport va malakali tibbiy xizmatlar bilan ta'minlash borasida xam kator ishlar amalga oshirildi. Masalan, Jizzax Politexnika instituti talabalar turar joyi, Jizzax Davlat

pedagogika instituti talabalar turar joyi, Jizzax pedagogika kolleji, Jizzax Olimpiya zaxiralari kolleji, JPI koshidagi 1-son akademik liseyi xamda Jizzax tarnsport, aloka kolleji talabalar turar joylari xamda ovkatlanish joylari tulik ta'mirdan chikarilib, musobaqa ishtirokchilarini joylashtirish uchun shay axvolga keltirilgan. Jumladan, 400 urinli Jizzax Davlat pedagogika instituti va 344 urinli Jizzax pedagogika kolleji talabalar turar joylariga musobaqa ishtirokchilari, ya'ni 735 nafar o'g'il bolalar va ularning murabbiylarini joylashtirish ko'zda tutilgan bulsa, 399 nafar qiz bolalar va ularning murabbiylari esa 400 urinli Jizzax politexnika instituti talabalar yotokxonasida turishadi. 190 nafardan iborat bulgan xakamlar va sport federasiyalari vakillari Jizzax Olimpiya zaxiralari sport kolleji yotokxonasiga (200 urinli), 100 nafardan iborat bulgan ommaviy axborot vositalari xodimlari Jizzax transport va aloka kolleji talabalar yotokxonasiga (200 urinli), xoreogoafiya guruxi (200 nafar) esa Jizzax politexnika instituti koshidagi 1-son akademik liseyi talabalar turar joyiga (200 urinli) joylashtirildi.

Shuningdek, mazkur turar joylarda malakali tibbiy xizmat kursatishni tashkil etish uchun 6 ta tibbiyot xonasi ajratilgan bulib, musobaqa ishtirokchilariga 6 ta tez tibbiy yordam brigadasi, 12 nafar vrach, 12 nafar xamshira va xaydovchilar tibbiy xizmat kursatadilar. Sport musobaqalari utkaziladigan ob'ektlarda, ya'ni Jizzax politexnika institutida musobaqa ishtirokchilariga tibbiy xizmat kursatish uchun 1 ta tibbiyot xonasi, 2 ta tibbiy post, 1 ta tez tibbiy brigada, 2 nafar vrach, 2 nafar xamshira, 1 xaydovchi ajratilgan bulsa, Jizzax Olimpiya zaxiralari sport kollejiga 1 ta tibbiyot xonasi, 2 ta tibbiy post, 2 ta tez tibbiy brigada, 2 nafardan vrach, xamshira va xaydovchi, "Sugdiyona" sport majmuasida esa 1 ta tibbiyot xonasi, 2

ta tibbiy post, 1 ta tez tibbiy brigada, 2 nafardan vrach va xamshira xamda 1 nafar xaydovchi faoliyat kursatadi. Bundan tashkari, shifoxonalardan 100 ta zaxira urinlari (Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Jizzax filialida 20 ta, Viloyat kup tarmokli tibbiyot markazida 30 ta, Viloyat bolalar kup tarmokli tibbiyot markazida 20 ta, Viloyat yukumli kasalliklar shifoxonasida 30 ta urin) ajratilgan bulib, u barcha turdag'i tibbiy xizmatlarni kursatishga tayyor xolga keltirilgan. Ushbu musobaqa ishtirokchilarining bush vaktlarini mazmunli utkazishlari uchun xam tashkilotchilar tomonidan bir kancha madaniy-ma'rifiy va kungilochar tadbirlar rejasiga ishlab chikilgan. Avvalo shuni kayd etib utish kerakki, musobaqa ishtirokchilarini kutib olish va ko'zatish marosimlari "Sugdiyona" sport majmuasida bulib utishi rejallashtirilgan. Shu bilan bir katorda musobaqalar davomida, ishtirokchilar joylashgan manzillarda turli madaniy-ma'rifiy xamda musikiy chikishlar tashkil etilishi ko'zda tutilgan bulsa, ishtirokchilarni viloyatimiz tarixi va madaniyati bilan yanada yakindan tanishtirish maksadida Jizzax shaxridagi mo'zeylar, teatrlar va boshka madaniyat ob'ektlariga tashriflar uyushtirish xam belgilandi.

Bundan tashkari sport musobaqasi ishtirokchilarini kutib olish va musobaqalar o'tkazilidigan ob'ektlarga xamda turar joylariga o'z vaktida xavfsiz yetkazilishi borasida xam talaygina ishlar amalga oshirilgan. Xususan, ishtirokchilar kutib olinadigan Jizzax temir yul vokzalidan to ular joylashtiriladigan turar joylar va sport musobaqalari utkaziladigan ob'ektlar urtasidagi yullar kayta ta'mirlanib, tulik asfalt bilan koplandi. Shuningdek, avtotransport xizmati kursatish uchun amalda 130 dona Iso'zu rusumidagi

avtotransport vositasi xamda 58 dona Nexia rusumidagi avtoulovlar ajratilgan bulib, ajratilgan Iso'zu avtotransport vositasidan 97 donasi 1134 nafar musobaqa ishtirokchilari (570 nafar o'g'il bola, 328 nafar qiz bola)ga xamda 236 nafar murabbiylarga xizmat kilsa, 14 donasi 156 nafar xakamlarga, 1 donasi esa sport federasiyalari vakillariga xizmat kursatishi belgilab kuyilgan. 100 nafar OAV xodimlari va 17 nafar Bosh xakamlarga 30 va 18 dona Nexia rusumidagi avtoulovlar jalg kilingan.

Umuman yuqoridagi raqamlar shundan guvoxlik beradiki, "kichik olimpiada"ni yuqori saviyada utkazish uchun barcha sharoitlar yaratildi.

**"Barkamol-avlod - 2017" sport o'yinlarining yakuniy uchinchi kuni "So'g'diyona" universal sport majmuasida suzish bo'yicha final musobaqalari bo'lib utdi. Bugungi bellashuvlar qatnashchilari 50 metrga brass, 50 metrga chalqancha, 100 metrga butterflyay usullarida suzish buyicha imkoniyatlarini namoyish etdishi.**

**Suzish musobaqalarida umumjamoa hisobida birinchi o'rinn Toshkent shaxri, ikkinchi o'rinn Andijon, uchinchi o'rinn Qashqadaryo viloyatlari sportchilariga nasib etdi. Keyingi o'rirlarni Navoiy va Jizzax viloyati jamoalari egalladi.**

**Musobaqalar yakunida g'oliblarga tantanali ravishda diplomlar, esdalik va qimmatbaxo sovg'alar topshirildi. G'olib uchlikdan joy olgan jamoalarga musobaqa kuboklari topshirildi.**

**"So'g'diyona" universal sport majmuasida "Barkamol avlod - 2017" saralash bosqichlaridan muvaffaqiyatli o'tgan eng sara sportchilar brass,**

**chalqancha, butterflyay, erkin hamda aralash estafeta usullarida suzish bo'yicha o'zaro kuch sinashdilar.** Ishtirokchilar orasida mamlakat birinchiliklari, xalqaro turnirlar g'olib va sovrindorlari borligi musobaqalarning murosasiz o'tishini ta'minladi.

- **Qizlar o'rtasida 50 metrga butterflyay usulda suzish bahslarida qashqadaryolik Fotima Amilova marra chizig'ini birinchi bo'lib kesib o'tib, oltin medal sohibi bo'ldi.** Shu masofaga o'smirlar o'rtasidagi musobaqalarda andijonlik Zufar Abdulazizov birinchi o'rinni egalladi.

**O'smirlar va qizlar o'rtasida 50 metrga chalqancha usulda suzish bahslarida poytaxtlik sportchilar Aleksey Tarasenko va Irina Ushakova shoxsupaning yuqori pog'onasidan joy oldi.** 100 metrga butterflyay usulda suzishda qizlar o'rtasida Qoraqalpog'istonlik Marjina Urazimbetova, o'smirlar bahsida poytaxtlik Artyom Kozlyuk eng yaxshi natija qayd etdi.

**Qizlar o'rtasida 200 metrga erkin usulda suzish bahslarida andijonlik Shaxnoza Sodikova, o'smirlar o'rtasida Navoiy viloyati vakili Olimjon Odilov g'olib chiqdi.** Qizlar o'rtasida aralash estafeta musobaqasida Qashqadaryo viloyati, o'g'il bolalar o'rtasida Toshkent shaxri jamoasi birinchi o'rinni qo'lga kiritdi.

**Suzish bo'yicha musobaqalarning birinchi kuni natijalariga ko'ra, eng ko'p ochko jamg'argan Toshkent shaxri jamoasi birinchi, andijonliklar ikkinchi, qashqadaryoliklar uchunchi o'rinni egallahdi.**

**Musobaqalar yakunida g'oliblarga diplomlar, qimmatbaxo va esdalik sovgalari topshirildi.**

**Jizzax shaxridagi "So'g'diyona" universal majmuasida sportning boks, yengil atletika, suzish va badiiy gimnastika turlari buyicha musobaqalar bo'lib o'tmoqda. Chunonchi, suzish bo'yicha baxslar brass, chalqancha, butterflyay, erkin usullarida kechdi. Bellashuvlarning oxirgi kunida 50 metrga brass, 50 metrga chalqancha, 100 metrga butterflyay usullarida suzish musobaqalari o'tkazildi. Eslatib o'tamiz, bahslar tarkibida 4 nafar o'g'il va 4 nafar qizlar bo'lgan jamoalar o'rtasida o'tmoqda.**

"Баркамол авлод-2017" спорт мусобақаларининг умумжамоа ҳисобидаги якуний натижалари

25-27 май 2017 йил

№	Худудлар	футбол				баскетбол (ўсмирлар)				баскетбол (кизлар)				волейбол (ўсмирлар)				волейбол (кизлар)				гандбол (ўсмирлар)				гандбол (кизлар)				енгил атлетика				бадий гимнастика				сузиш				шахмат			
		ўрин	очко	ўрин	очко	ўрин	очко	ўрин	очко	ўрин	очко	ўрин	очко	ўрин	очко	ўрин	очко	ўрин	очко	ўрин	очко	ўрин	очко	ўрин	очко	ўрин	очко	ўрин	очко	ўрин	очко	ўрин	очко	ўрин	очко	ўрин	очко	ўрин	очко	ўрин	очко				
1	Қорақалпоғистон Республикаси	XIII	2	II	13	I	15	V	10	V	10	II	13	VII	8	XIV	1	VI	9	VII	8	VIII	7	VII	8	VIII	2	VII	13	XIII	2	VII	13	VIII	1										
2	Андижон	V	10	XI	4	V	10	III	12	II	13	IV	11	IV	11	IX	6	XI	4	XI	4	XIII	2	III	12	XIV	1	XIV	1	XIV	1	XIV	1	XIV	1										
3	Бухоро	VII	8	V	10	XI	4	XI	4	IX	6	XI	4	XI	4	XI	4	XI	4	XI	4	XI	4	XI	4	XI	4	XI	4	XI	4	XI	4	XI	4	XI	4								
4	Жиззах	IX	6	IX	6	II	13	XI	4	VII	8	III	12	XI	4	IV	11	V	10	V	10	V	10	V	10	V	10	V	10	V	10	V	10	V	10	V	10								
5	Навоий	XI	4	IX	6	VII	8	I	15	VII	8	IX	6	IX	6	II	13	IV	11	IV	11	IV	11	IV	11	IV	11	IV	11	IV	11	IV	11	IV	11	IV	11								
6	Наманган	XI	4	V	10	IV	11	V	10	I	15	IX	6	II	13	X	5	IX	6	IX	6	IX	6	IX	6	IX	6	IX	6	IX	6	X	5	X	5	X	5								
7	Самарқанд	VII	8	III	12	IX	6	IX	6	V	10	VII	8	I	15	V	10	I	15	V	10	I	15	VI	9	V	10	VI	9	V	10	VI	9	V	10	VI	9	V	10						
8	Сирдарё	IX	6	XIII	2	XI	4	XIII	2	XI	4	V	10	IX	6	XI	4	V	10	IX	6	XI	4	XIV	1	XII	3	XI	4	XII	3	XI	4	XII	3	XI	4								

9	<b>Сурхондарё</b>	XIV	1	XI	4	IX	6	IX	6	IX	6	XIV	1	XIII	2	XII	3	XIII	2	XIII	2	IX	6
10	<b>Тошкент в.</b>	V	10	XIII	2	VII	8	XIV	1	XIV	1	XIII	2	V	10	VI	9	XII	3	X	5	VII	8
11	<b>Фарғона</b>	II	13	VII	8	V	10	II	13	IV	11	XI	4	XIV	1	VII	8	VIII	7	XI	4	II	13
12	<b>Қашқадарё</b>	I	15	VII	8	XIII	2	IV	11	XIII	2	V	10	III	12	VIII	7	VII	8	III	12	VI	9
13	<b>Хоразм</b>	IV	11	IV	11	XIV	1	VII	8	III	12	VII	8	VII	8	III	12	XI	4	VIII	7	XII	3
14	<b>Тошкент ш.</b>	III	12	I	15	III	12	VII	8	XI	4	I	15	V	10	I	15	II	13	I	15	I	15

**Мусобақа Бош ҳаками**

**Ф.Турдиев**

**Мусобақа Бош котиби**

**М.Раҳматхўжаев**

**"Баркамол авлод-2017" спорт мусобақаларининг умумжамоа ҳисобидаги  
якуний натижалари**

25-27 май 2017

ЙИЛ

Жиззах ш.

№	Худудлар	футбол		баскетбол (ўсмиirlар)		баскетбол соаткетооли (қизлар)		волейбол (ўсмиirlар)		волейбол (қизлар)		гандбол (ўсмиirlар)		гандбол (қизлар)		енгил атлетика		бадий гимнастика		сузиш		шахмат		стол тениси		огир атлетика		таэквондо ВТФ		тенис		эркин кураши		юнон-рум кураши		дзо-до		бокс	
		ўрин	очко	ўрин	очко	ўрин	очко	ўрин	очко	ўрин	очко	ўрин	очко	ўрин	очко	ўрин	очко	ўрин	очко	ўрин	очко	ўрин	очко	ўрин	очко	ўрин	очко	ўрин	очко	ўрин	очко	ўрин	очко	ўрин	очко	ўрин	очко		
1	Тошкент Е.	III	12	I	15	III	12	VII	8	XI	4	I	15	V	10	IV	13	II	12	IX	11	IX	6	X	5	II	13	I	15	III	2	I	15	IV	11	XI			
2	Андижон	V	10	XI	4	V	10	III	12	II	13	IV	11	IV	11	V	10	VII	8	I	15	V	10	I	15	VI	9	V	10	IX	6	VII	8	V					
3	Самарқанд	VII	8	III	12	IX	6	IX	6	V	10	VII	8	I	15	V	10	I	15	VII	8	IX	6	X	5	II	13	XIII	2	I	15	IV	11	XI					

Мусобақа Бош ҳаками

Ф.Турдиев

Мусобақа Бош котиби

М.Раҳматхўжаев



## XULOSA

Suzish sportining rivojlanishi va "Barkamol avlod" sport musobaqalari dasturiga kiritilishi mavzusida izlanish olib borib shunday xulosaga keldimki O'zbekistonda suzish sportining rivojlanishi 3 davrga bo'linar ekan. 1 davr 1924-1965 yillar, 2 davr 1965-1991 yillar, 3 davr 1991 yildan xozirgacha.

O'zbekistonda suzish sporti rivojlanishining birinchi davrida axvol juda achinarli, sobiq ittifoq respublikalari ichida eng oxirgi o'rinda turgan turkmanistondan atigi bir pog'ona yuqorida edi xolos. Buning sababi suzish xavzalari deyarli yuk edi. Ikkinci jaxon urushidan keyin tug'on va suv omborlari atrofidagi shaxarlarda yashovchilar uchun suv sporti bilan shug'ullanishga imkon tug'ulgan bulsa, o'tgan asrning 60 yillaridan keyin suzish xavzalari ko'prok ko'rilib sportchilarimiz hatto jaxon arenalariga xam chiqa boshlagan.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin esa boshqa qator sport turlari qatori suzish sportiga xam juda katta e'tibor berildi. Suzuvchi sportchilarimiz orasida Osiyo jaxon championlari, olimpiada ishtirokchilari mavjud. (Iroda Iskandarova Osiyo championi, Pankov Osiyo championi, Olimpiada ishtirokchisi Ulugbek Usmanov yoshlar o'rtasida jaxon championi) xatto paraolimpiya g'oliblari xam bor.

Xulosa qilib aytganda yurtimizda suzish sportiga shunchalik katta e'tibor berilayotgan ekan, bu sport turini yoshlarning sevimli "Barkamol avlod" musobaqasi dasturiga kiritilishi ayni muddao bo'lgan. Bu bilan kelajakda biz bo'lg'usi Osiyo, Jaxon, Olimpiada o'yinlari g'oliblarini yetishtirib chiqarishga turki bo'ladi desak adashmaymiz.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

- 1.Sh.M. Mirziyoyev. "Xalq so'zi" 25 may 2017 yil
- 2.Karimov I.A. "Bolalar sporti: Asosiy maqsad –sog'lom avlodno voyaga yetkazish" 4 mart 2011 yil "Xalq so'zi" gazetasi
- 3.Karimov I.A. "Barkamol avlod –mamlakatimizni rivojlantirishda xal qiluvchi kuch" 24 fevral 2012y "Vatanparvar"
- 4.Karimov I.A. "Barkamol avlod mamlakatimizning mustahkam tayanchi" 10 fevral 2012 yil "Xalq so'zi" gazetasi
- 5.A.Rixsiyeva "Sport meditsina asoslari" Toshkent, "Meditina"
- 6.I.A. Butovich "Suzishni o'rghaning" Toshkent
7. N.J.Bulgakova, "Plavanie", FIS 1979 y, 1984 y, [ruscha].
8. O.A.Sobirova "Suzish" Toshkent, Ibn Sino, 1993 y. F/S
9. O.A.Sobirova "Sog'lom bo'lay desangiz" Toshkent, "Meditina",
10. O.A.Sobirova, "Suzish san'atini o`rgan" Toshkent, "Meditina", 1989
- 11.O. A.Sobirova "Bolalarni suzishni o'rghaning" Toshkent nashriyoti
- 12.O.Tangirov., A.I. Levitskiy "Suzish" Toshkent
13. Programma po plavaniyu i metodike prepodovanie [ruscha], Moskva, 1980, 1988 y.
- 14.R.Xalyant. "Suzish texnikasining modellari" Tallin
- 15.T.Tamp. "Suzishdagi startlar texnikalari" Tallin
- 16.T.Soosar. "Suzishdagi burlishlar texnikalari"
17. Y.Tangirov, A.N.Levitskiy "Suzish" Toshkent, "Meditina", 1986 y.
- 18.www. sport.uz.
- 19.www.suzish.uz.
- 20.www. barkamol avlod.uz